

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**D. Pulatov**

**TASVIRIY SAN'AT TARIXI**  
**(Qadimgi dunyo san'ati)**

Oliy ta'lim o'quv yurtlarining  
5110800 - Tasviriy san'at va muxandislik grafikasi ta'lim  
yo'nalishi uchun o'quv uslubiy qo'llanma

**Namangan-2018**

**UO`K: 821-512-133-9**

**KBK: 84(5O`zb)7**

**P -**

O`quv uslubiy qo`llanmada jahon xalqlari san`atining yirik tarixiy bosqichi bo`lgan qadimgi dunyodagi badiiy-ijodiy va madaniy hayotidagi taraqqiyot davri bayon etilgan. Mazkur o`quv uslubiy qo`llanmadan oliy ta`lim muassasalari va kasb-hunar kollejaridagi Tasviriy san`at tarixi, Qadimgi dunyo san`ati kabi fanlardan manba sifatida foydalanish mumkin.

**Taqrizchilar:**

B.Boymetov	Toshkent viloyat Pedagogika kolleji Dizayn kafedrası professori, O`zBA badiiy ijodkorlar uyushmasi a`zosi, professor, pedagogika fanlari nomzodi
B.Jabbarov	Namangan davlat universiteti Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi kafedrası dotsenti
N.Nabidjanova	Namangan muhandislik texnologiya institutı Yengil sanoat mahsulotlarini konstruksiyalash va texnologiyasi kafedrası dotsenti, texnika fanlari nomzodi

**ISBN - 978-9943-5247-5-0**

© **Dilmurod Pulatov**

© **“Namangan” nashriyoti, 2018 y.**

## Kirish

Tasviriy san'at ong va tafakkurning eng ko'ha mahsuli bo'lib, insoniyat uzoq yillik tarixiy taraqqiyot asnosida atrof mihit, tabiat va voqelikka nisbatan o'z munosabatini sodda shakllarda bildirishga intilishgan. Shu alfozda tasviriy san'atning dastlabki sodda namunalari yuzaga kela boshladi. Bu insoniyatning ibtidoiy jamoa davridan boshlanib, yer yuzida ilk sinfiy jamiyatning shakllanishi va undan keyingi davrning ijtimoiy-madaniy va tarixiy-tadrijiy jarayonlari pirovardida takomillashdi.


Ibtidoiy jamoa davri eng uzoq davom etgan tarixiy bosqich bo'lib, odamlarning ilk hayoti, dastlabki tushunchalari shakllana boshlagan va bu jarayonga o'z munosabatlarini bildira boshlagan davrdir. Mazkur bosqich yer yuzining qaryib, barcha joylarida bosib o'tilgan. Bu tarixiy taraqqiyot davomida odamlarning dastlabki tasavvuri, badiiy-estetik his-tuyg'ulari shakllana boshlagan. O'z davrining sodda hayotiy ko'rinishini ifodalovchi devoriy suratlar, dekorativ uslubdagi shartli harakterli haykaltaroshlik namunalari buni kuzatish mumkin. Bu kabi tasvirlar asosan g'or devorlariga va qoyatosh yuzalariga ishlangan animalistik janrga xos namunalardan iboratdir. Ibtidoiy tasvirlar tabiiy bo'yoqlarda ishlanishi va asosan natural kattalikka egaligi bilan alohida ajralib turadi.

Ibtidoiy jamoa hayotida yangi ijtimoiy munosabatlar shakllana boshlagan ilk sinfiy jamiyat davridan insonlar ongida va badiiy tafakkurida ham jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu quldorlik jamiyati hisoblanib, san'atning ta'sir kuchidan mafkuraviy maqsadda foydalanish an'anaga aylana boshladi. Bu holni qadimgi dunyo mamlakatlari misolida yaqqol kuzatish mumkin. Tasviriy san'at quldorlik jamiyati hukumdorlarining qudratini namoyish etish bilan birga, eng qadimgi diniy dunyoqarash bilan bog'liq tushunchalarga ijodiy munosabatda rivojlanib keldi.

Mazkur o'quv uslubiy qo'lanmada shu kabi masalalar bayon etilgan. Yer yuzidagi dastlabki madaniyat uchoqlarining shakllanishi va rivojlanishi, tasviriy san'atning haykaltaroshlik, rangtasvir turlari hamda me'morlikda yaratilgan badiiy yodgorliklar xususida mulohaza yuritilgan. Imkon qadar qadimgi sharqning eng yirik madaniyat maskanlari – Misr, Old Osiyo, O'rta Osiy va Eron hamda antik dunyo san'atiga keng yondoshilgan. Hozirga qadar chop etilgan mavzuga doir manbalardan farqli o'laroq, ilovalar sifatini oshirishga ham alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur uslubiy qo'llanma nafaqat oliy ta'lim muassasalari talabalari, balki turdosh kasb-hunar kollejlari va o'rta maxsus ta'lim muallimlari, shuningdek keng kitobxon ommasiga mo'ljallangan.

# 1 BOB

## QADIMGI DUNYONING DASTLABKI IJODIYOTI




Ibtidoiy jamoa davri insoniyat tarixiy taraqqiyotidagi eng koʻhna davr boʻlib, odamlarning dastlabki turmush tarzi, voqea va xodisalarga hissiy sodda tushunchalari shakllana boshlagan va bu jarayonga oʻz munosabatlarini badiiy timsollarda bildirib boshlagan ilk jamoachilik davridir. Kurrai-zaminning barcha joylarida bosib oʻtilgan bu eng uzoq tarixiy bosqich asnosida insoniyatning ilk diniy tasavvurlari, goʻzallik va estetik tuygʻulari shaklanib, ongli munosabatlar zuhur eta boshladi. Pirovardida sanʼatning sodda maishiy hayotga mos koʻrinishi devoriy suratlarda, dekorativ harakterdagi dumaloq haykaltaroshlikda oʻz aksini topa boshladi. Turli gʻor devorlariga va qoyatosh yuzalariga ishlangan dastlabki rasmlar asosan animalistik janr mansub boʻlgan. Hayvonlarni ovlash bilan bogʻliq voqea-xodisalar sxematik shakllarda talqin etilgan. Poleolit davrining soʻnggi pallasidan esa hayvonlar tasviri ancha hayotiy aniq koʻrinish kasb etib, tana mutanosibligi, plastik anatomiyasi va harakatlarini toʻgʻri ifodalash boʻyicha katta ijodiy tajribaga erishilganligi kuzatiladi.

Ibtidoiy jamoa davridan keyingi quldorlik tuzimi davri odatda qadimgi dunyo deb yuritiladi. Bu davrda yangi tartibdagi hayot tarzi boshlandi. Qabilalar yiriklashib, mudofaga ehtiyoj tugʻildi, mulkiy tengizlik yuzaga kelib boylikning maʼlum bir kishilar qoʻlida toʻplanishi sinfiy boʻlinishga imoniyat yaratdi. Natijada quldor va qullar sinfi yuzaga kelib, keyinchalik harbiy mudofa kuchiga ega boʻlgan ilk davlatlar vujudga keldi. Qadimgi dunyo sanʼati shu davlatlarni shaklanishidan toki yangi tarixiy tuzim – feodalizmning boshlanishigacha boʻlgan yirik davrga xos meʼmorlik, haykaltaroshlik, rangtasvir va amaliy sanʼat ijodiyotini oʻrganadi.



Jahon xalqlari san'ati tarixida ibtidoiy jamoa davri muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tarixiy bosqich qariyb barcha xalqlarning tarixiy-madaniy o'tmishidan o'rin olgan. Bu davr yer yuzidagi odamlarning ilk tushunchalari, atrof-muhit va undagi voqea-hodisalarni tushunishga bo'lgan dastlabki qarashlarini ifodalaydi. Bunday qarashlar dastavval oddiy shaklga ega bo'lgan uy-ro'zg'or buyumlari va mehnat-ov qurollarini yasash, davrlar o'tib esa ularga bezak berish asnosida shakllanib kelgan.

Ibtidoiy odamlar uchun san'at asarlari yaratish ularni hozirgidek go'zallikdan zaqlanish, o'z qobiliyatini ko'rgazmali namoyish etishdan farqli o'laroq, kundalik hayoti bilan bog'liq holda kechgan. Masalan, yirik hayvonlarni ovlashdan oldin hayvon tasvirini yerga chizib, uni qurshab olib, nayza sanchish marosimlari o'tkazilgan. Yoki g'or devorlari, qoya tosh yuzalariga ov jarayonini aks ettirishgan. Asta-sekin, shu alfozda rasm chizish kundalik hayotga o'rnatilib borishi natijasida jamoalar orasida alohida qobiliyat egalari ajrab chiqib, tasvirlarni real qiyofaga o'xshatish bilan birga, ranglardan foydalanish ko'nikmasi ham oshib borgan (1-2 rasmlar). Kundalik tabiiy ehtiyojlarga mo'ljallab yasalgan buyumlar ularning maishiy hayotiga chuqur kirib borishi pirovardida ulardan shunchaki foydalanishgina emas, balki tashqi ko'rinishi, shaklu-shamoyilini ham chiroyli bo'lishiga intilib, bezak berishga uringanlar.




**1-rasm.** Ibtidoiy davr odamlari sodda mulohazali ijodkorlardir.

Maishiy hayot uchun qulay va nozik ishlangan narsalarni saqlashga harakat qilganlar. Mehnatni takomillashuvi natijada mehnat jarayoniga san'atkorlik faoliyati kirib borgan. Chiroyli, nozik, qulay narsalarni yaratilishi – san'atni shakllanishiga olib kela boshlagan.

Odamlar o'zlari uchun ilk ro'zg'or buyumlarini yasashlaridan tortib toki kiyim-kechaklarni tayyorlashgacha urinishlari ularning shakl berish tuyg'usini va nihoyat ijodkorlik qobiliyatlarini o'stirgan. Ovchilik ular uchun ikki tomonlama manfaat keltirgan, birinchisi – oziq ovqat, ikkinchisi - hayvon terisidan issiq kiyim-kechaklar tikib kiyishlari uchun qo'l kelgan. Hayvonlarni ichaklarini quritib, ulardan ip tayyorlangan. Bu kabi faoliyatning ommalashuvi ibtidoiy odamlar tasavvurini yanada kengaytirib, qo'l mehnati orqali go'zallik yaratish mumkinligini anglab yetganlar.

Qo'l mehnati bilan ro'zg'or buyumlari yaratilmasidan burun esa ular oziq-ovqat g'amlash, suvlarni saqlashga e'tibor qaratmaganlar. Bularni saqlash mumkinligini tabiiy holda hosil bo'lgan narsalarning shakli orqali bilishgan. Yomg'ir yoqqandan so'ng suv to'planib, so'ngra qurigandan keyin quyosh issiqligida qurib-yorilib ma'lum bir ququrcha (kosa ko'rinishiga o'xshash) shaklini hosil qilgan. Qayta yomg'ir yog'ishi bilan shu chuqurchalarda to'planib qolgan suv, uni saqlash mumkinligi haqida tasavvur bergan va kulolchilik buyumlarini yaratishlariga olib



**2-rasm.** Ibtidoiy davr odamlari hayoti.

kelgan.

Ibtidoiy odamlarni uylari asosan tabiiy g'orlar, qoya va yirik tosh panalari bo'lgan. Dastlabki ro'zg'or buyumlari chuqurchali yassi toshlardan iborat bo'lgan. Keyinchalik bu toshlardan kengroq foydalanib, me'morlik qurilmalari, sodda haykaltaroshlik namunalarini yasashga asos bo'lgan (3-rasm).

Eramizdan 30-40 ming yillar avval yashagan odamlar san'at turlarini ho'jalik va kundalik hayot ehtiyojlaridan kelib chiquvchi sodda buyumlar yasashni o'rganishgan.

Ibtidoiy jamoa davri san'ati tarixi dastlabki odamlarning paydo bo'lishidan toki yer yuzida quldorlik tuzumi shakllanishiga qadar bo'lgan davrni qamrab oladi va tarixiy tamaddunning eng uzoq davri hisoblanadi.



### **3-rasm. Ibtidoiy odalarning ov va mehnat qurollari**

Bu davrlarni arxeologiklar qazilma topildiqlarining (qurol-aslahalar, turli buyumlar va b) yaratilish ashyosiga qarab uchta bosqichga ajratadilar (1-jadval):

Birinchisi: **tosh asri** – eramizdan avvalgi uch ming yillikkacha bo'lgan davrlar;

Ikkinchisi: **mis yoki bronza asri** – eramizdan avvalgi 3-2 ming yillarni o'z ichiga oladi.

Uchinchisi: **temir asri** – eramizdan avvalgi 1 ming yillikni qamrab oladi.

Mazkur davrlar orasida eng uzoq davom etgan va yirik bosqich – tosh asri hisoblanadi. Tosh asri eramizdan avvalgi 150 ming yillikdan to 3 ming yillikkacha bo'lgan olis davrlarga to'g'ri keladi. Bu davr insoniyat ongida san'at tushunchasining paydo bo'lishidan boshlab, uning shakllanishi va ma'lum darajada ijodkorlik qobiliyatini ham o'sishini ta'minlab berdi. Tosh asri juda uzoq davrlardan boshlanib, quyidagi taraqqiyot bosqichlariga ega: quyi tosh asri, o'rta tosh asri, yuqori tosh asri.

Quyi tosh asri – **poleolit** deb yuritiladi va eramizdan avvalgi **10** ming yillikkacha bo'lgan davrni qamraydi.

Oʻrta tosh asri – **mezolit** deyiladi, eramizdan avvalgi **10-6** ming yillikkacha boʻlgan davrni oʻz ichiga oladi.

Yuqori tosh asri – **neolit** deb yuritiladi va eramizdan avvalgi **6-3**ming yillikkacha boʻlgan davrlar mansub hisoblanadi.

Tosh asrlari orasida paleolit yoki eng qadimgi tosh asri tarixiy taraqqiyotning juda uzoq davriy masofaga ega boʻlgan bosqichidir. “Bu taraqqiyotni bir qator davrlarga ajratish mumkin: eng qadimiy yoki quyi paleolit (er. av. 150 ming yilliklar), oʻrta paleolit (er. av. 150-35 ming yillik), yuqori yoki soʻngi paleolit (er. av. 35-10 ming yillik)”<sup>1</sup>.



**4-rasm.** Kiyiklarni ovlash.  
Afrika. Mezolit davri


Poleolit bosqichida tasviriy sanʼat ilk shakllanish davridan tortib toki, toʻliq shakllanish davrini boshidan kechirdi. Bu davrda eng sodda tasviriy sanʼat namunalari yaratilgan boʻlib, oʻsha davrdagi odamlarning olam va borliq tushunchalarini ifodalaydi. Bunday tasvirlar Yevropa va Osiyo mintaqalaridan topilgan. Tasvirlar asosan gʻor shiplari va devorlariga ishlangan. Shuningdek, devoriy tasvirlardan tashqari uy-roʻzgʻor buyumlari, mehnat va ov qurollari, sodda koʻrinishda ishlangan turli haykallardan iborat arxeologik topilmalar paleolit davrida tasviriy sanʼat shakllana boshlaganligidan dalolat beradi. “Dastlabki rasmlar primitiv va asosan, hayvonlar koʻrinishini tasvirlaydi. Mamont, yirik qoʻtos, kiyik, ot va boshqa hayvonlar kontur chiziqlarda, tabiiy boʻyoqlarda ishlangan”<sup>2</sup> (4-rasm). Ibtidoiy davrdan meros qolgan tasviriy sanʼat namunalari insoniyat yer yuzidagi ibtidoiy yagona ongli mavjudod boʻlganligidan dalolat beradi. Inson ongi davrlar osha ehtiyojlarga mos ravishda takomillashib borishi bilan sanʼat asarlariga munosabat oʻzgarib borgan. Poleolit davri sanʼatida esa inson ongli ravishda eng sodda hayotdagi munosabatlari talqin etiladi. Sanʼat asarlari odatda insonlarni qiziqtirgan eng zavqli lahzalari yoki jamiyatning ilgʻor tarbiyaviy gʻoyalari taʼsirida yaratiladi.

Bu bilan inson va jamiyatning maʼnaviy-madaniy ehtiyojlari doirasida dialektik munosabat roʻy beradi. Poleolit davrida esa, jamiyat ham estetik

<sup>1</sup> Н.Абдуллаев. Санъат тарихи (Қадимги ва ўрта асрлар). электрон ўқув қўлланма, 2004 й.

<sup>2</sup> Н.Абдуллаев. Санъат тарихи. 2-томлик ўқув қўлланма, Т.: 1986 й, 9-б.





1- жадвал. Ибтидоий даврнинг тарихий босқичлари



**5-rasm.** Shimoliy Ispaniyaning Altamir g'oridan topilgan bizon tasviri. Poleolit davri

zavqlanish ham bo'lmagan, faqat rasmlardan taa'ssurot o'rnida foydalanilgan. Shuning o'zi ibtidoiy odamlarning sodda hayotiy ehtiyojini qondirgan. Ular uchun san'atning g'oyaviy-estetik xususiyatlari, ko'rgazmali namoyish etishga hojat bo'lmagan. So'nggi tosh asridan boshlab insonlar tasviriy san'atda diniy tushunchalarini ham ifodalash boshlandi. Natijada san'atning g'oyaviy kuchidan foydalanish boshlandi.

Bu hol keyinchalik (mis va bronza, ayniqsa temir asriga kelib) ilk sinfiy jamiyat shakllangandan keyin san'atning g'oyaviy kuchidan ommani boshqarishda hukumron tabaqalar uchun g'oyaviy "qurolga" aylana boshlagan. Unga qadar esa ibtidoiy odamlarning o'z taa'ssurotlarini ifodalash bilan chegaralangan. Yovvoyi hayvonlarni tashqi ko'rinishini ifodalash bilan hayvonlar turi to'g'risida aniq tasavvur uyg'otishga xizmat qilgan deyish mumkin. Bu ov chog'ida hayvonlarni butun jamoa tanishlari, yirik va kuchli mumkin (2-jadval). Bu hol tosh asrining yangi va ayniqsa so'nggi bosqichidan rassomlik yondoshuvi kuchayib, alohida san'at nuqtai nazarini shakllantirgan. Endilikda hayvonlar shunchaki oddiy, sxematik ko'rinishda emas,



**Marselino Sautuola.**  
Altamir g'orini o'rgangan  
Ispaniyalik arxeolog.

balki aniq qiyofada va natural kattalikda tasvirlana boshlagan. Hayvonlar tuzilishida anatomik aniqlikka e'tibor bera boshlangan. Shu xususda Shimoliy Ispaniyaning Altamir g'oridan topilgan<sup>3</sup> bizonlarning turli ko'rinishdagi guruhli tasvirlari diqqatga sazavordir (5-6 rasm). hayvonlarni qanday ovlash mumkinligi borasida tushuncha bergan bo'lishi

Ispaniya, Altamir g'origa ishlangan paleolit davriga oid "Bizonlar" tasviri misolida o'sha davr rassomlari ijodida hayvonlarni anatomik jihatdan ancha puxta tajriba to'plaganlarini va tasvir harakatlarini ham mohirlik bilan ifodalay olganliklari yaqqol seziladi. Bu tasvirlarda Bizonlar to'dasi turli dinamik harakatlarda ishlangan. Har birini ko'rinishi alohida plastik yondoshuv asosida bajarilgan bo'lib, kuchli harakatdagi qiyofaga asoslangan. Rasmda hayvonlar ko'rinishini real shaklga juda yaqinligi hamda hajmdorlikni ham his etilganligi muallifni qobiliyati yuqori bo'lganini anglatadi. Bu tasvirlar olis tarixdan bizgacha saqlanib qolgan namunasidir. Bizgacha yetib kelmagan shunga o'xshash darajadagi san'at namunalari yana bo'lganligi (saqlanib qolmaganligi)ni ham inkor etib bo'lmaydi.

Paleolit davriga doir tasviriy san'at namunalari ko'proq Afrika, Yevropa va Osiyo mintaqalaridan (Fransiya, Ispaniya, Kavkaz, Sharqiy Yevropa, Sibir, O'rta Osiyo, Ozarbayjon, Afrika) topilgan. Mazkur tasvirlar ibtidoiy odamlarning manzili hisoblangan g'orlarga, qoyatosh yuzalariga ishlangan. Bo'rtma tasvir va suratlardan iborat bo'lgan bu rasmlarda hayvonlar shakli aniq ko'rinishda ifodalangan. Tasviriy san'atning animalistik janriga mansub paleolit davri suratkashligining eng gullagan vaqti eramizdan avvalgi 20-10 ming yilliklarga to'g'ri keladi va bu Madlen davri deyiladi. Madlen davriga oid rasmlarda rang va shakl uyg'unligi kuzatiladi. Bu qadimgi tosh asri ijodkorlarining katta yutug'i hisoblanadi.

Paleolit davri tasviriy san'ati namunalari Fransiyaning Fon de Gom, Lyasko, Nio, Limeyl, Teyja, Ispaniyaning Altamir, Los Karbalos kabi manzilgohlaridan ko'proq topilgan. Topilmalar kiyiklar podasi, bizon, kiyik ovi kabi tasvirlarni tashkil etadi.

Tosh asrining paleolit, mezolit hamda neolit davriga tegishli diqqatga sazavor tasvirlar Italiya, Angliya, Germaniya, Chexoslovakiya,

Ukraina, Gruziya, Sibir, Farg'ona, Surxondaryo hududlaridan ham topilgan. Ibtidoiy jamoa davrining Mis yoki bronza asri eramizdan avvalgi 3-ming yillik o'rtalaridan boshlangan. Mehnat, ov qurollari va maishiy buyumlar uchun yangi ashyoning kashf etilishi insoniyatning ijtimoiy-madaniy taraqqiyotida muhim o'rin egalladi. Avvalgi tosh qurollarga nisbatan ancha yengil, puxta, qulay va samarasi yuqori bo'lgan bronza qurollari (mehnat va ov qurollari, ho'jalik buyumlari) shakl jihatidan ham mukammallashdi va ixchamlashdi. Shuningdek, bezakdorligi va

---


<sup>3</sup> Альтамир ғори илк бор Испан археологи Марселино Саутуола томонидан тадқиқ этилган.

nozikligiga e'tiborning ortishi insoniyat badiiy tafakkurini yanada sayqallashtirdi. Go'zallikka intilish, foydalanayotgan buyumlarini amaliy qulayligi bilan birga bezakdorligiga

Mis va bronza asrida ibtidoiy jamoada yangi ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar shakllana boshladi. Endilikda yirik jamoalar kichik jamoalarga bo'linishi natijasida ularni ko'chib yurishi yoki o'troqlashuviga

imkon yaraldi. Natijada odamlar tabiat mahsulotlarini o'zlari o'stirib yetishtirishlari, ekin ekishlari, hayvonlarni ham boqish va ko'paytirishni o'rganishdi. O'zlari

yetishtirgan mahsulotlarini to'plash va undan foydalanishni tartibga solishdi. Pirovardda qo'shimcha oziq-ovqat mahsulotlarining to'planishi sekin-asta qabila boshlig'i – oqsoqollar mavqeyini oshirib sinfiylik tuzilmasini shakllanishiga olib keldi. Oqibatta dastlabki sinfiy jamiyat harakteridagi boshqaruv tuzimi yuzaga kela boshladi. Bu ayniqsa qadimgi Sharq mintaqasining daryo yoqasida joylashgan manzillarida bir qadar faol kechdi.




Qadimgi Misr, Hindiston, Old Osiyo va O'rta Osiyodagi daryo oqimi hududlarida sinfiy jamiyat shakllanishiga olib keldi. ham alohida e'tibor ortdi. Shular ta'sirida mahoratli san'at harakteri shakllana bordi.



6-rasm. Ispaniyadagi Altamir g'ori va undagi tasvirlar.



**Ibtidoiy davr me'morligi.** Ma'lumki ibtidoiy jamoa davri odamlari uzlari uchun tabiiy g'or va qoya tosh panalarini manzil tutgan. Bu joyda ular o'z jonlarini qishning sovuq va yozning issiqligidan hamda yirtqich hayvonlar hujumidan saqlagan. G'orlar ularning ishonchli panoh joylari hisoblanib, shu maskanlarini bezashga intilganlar, yirik va yassi devorlariga tasavvurlari asosida hayvonlar tasvirini tushirishgan. Yevropa, Markaziy Osiyo va Afrika qitalaridan shu kabi g'orlar ko'plab topilgan. Masalan, Shimoliy ispaniyada joylashgan Altamir, Fransiyadagi Lasko, Fon de Gom, O'zbekistonning janubiy hududida joylashgan Zarautsoy kabi yirik maskanlarni shu o'rinda ta'kidlash mumkin.



7-rasm. Mengir. Bretan, Frantsiya.

Keyinchalik ibtidoiy jamoa davrining so'nggi bosqichi (neolit va bronza asri)dan boshlab, g'orlar bo'lmagan hududlarda ham ulkan xarsang toshlardan foydalanib bosh pana qurishgan. Bu juda sodda bo'lishiga qaramay o'sha davr odamlari tomonidan o'z qo'llari bilan bunyod etilgan dastlabki me'moriy qurilmalar hisoblangan. Bu megalitik<sup>4</sup> qurilmalar tarkibiga kiruvchi dolmen tipidagi qurilmadir. Megalitik qurilmalarni olimlar quyidagi uch turkumga bo'lishgan: mengir, dolmen, kromlex. Bu qurilmalar orasida dolmen tipi ma'lum darajada bosh pana vazifasini o'tagan. Mengir va kromlex esa turli marosimlar o'tkazishda foydalanilgan deb ta'rif beriladi. Amaliy foydalanish xususiyatidan qat'iy nazar ular dastlabki me'morlik elementlari hisoblanadi. Megalitik qurilmalar Yevropada eneolit va bronza (er.avv – 3-2 minginchi yillar) asrida qurilgan. Menger qurilmalari yakka va yirik xarsang toshdan iborat bo'lgan. Dolmen – ikki va undan ortiq tosh bloklari birikmasidan tiklangan bo'lsa (8-rasm), kromlex shu kabi tosh bloklaridan tashkil topgan aylana shaklidagi qurilmadir. Shu o'rinda Angliyadagi Staunxenj kromlexi mashhurdir (9- rasm).



8-rasm. Dolmen. Frantsiya.

<sup>4</sup> Грекча сўздан олинган бўлиб mega –катта, litos – тош деган маънони англатади, қўлда ишлов берилган йирик тош блокларидан ташкил топган бирикмали қурилмалар ҳисобланади.




9-Рачм. Кромлех. Англија, Стаунхендј.





Dolmen tipidagi megalitik qurilmalardan namunalar






Insoniyat o'tmishining madaniy tamaddunida dastlabki badiiy tushunchalar juda rang-barang, ijodiy uslubi soddalikdan murakkablikka tomon rivojlanib borgan qadimgi davr alohida ajralib turadi. Qadimgi davr – ibtidoiy jamoa tuzimidan keyingi tarixiy bosqichdir. Yer yuzida ilk sinfiy jamiyat shakllanib, quldorlik tuzumi vujudga kelishidan toki ilk o'rta asrlarda feodalizmning boshlanishiga qadar kechgan davrni o'z ichiga oladi.

Bu tarixiy taraqqiyot asnosida jamiyat tuzumi shakllanishi bilan birga, insoniyatning ilk e'tiqodi bilan bog'liq jarayonlar, hayotdagi voqea-hodisalar, tabiat kuchlarini obrazli tushinish kabi turli ong munosabatlari ham yuzaga keldi. Tabiatdagi ayrim kuchli hayvonlar va yirtqich qushlarga afsonaviy tus berib, bino devorlariga ularning tasvirini ishlash yoki haykaltaroshlikda aks ettirishga intilib kelganlar. Qadimgi dunyo mamlakatlari san'atkorlikda inson qobiliyatining yuksak imkoniyatini namoyish etishdi. Insoniyat azaldan go'zallik shaydosi ekanligi va estetik nafasatga moyilligini san'at asarlari orqali namoyot etdi. Shu bilan birga, san'at qadimgi davr jamiyatining hukumron sinfiga g'oyaviy vosita sifatida ham xizmat qilgan. Shahar-davlatlarning shon-shavkati, hukumdorlarning kuch qudratini ko'rsatishda yetakchi o'rin egallagan. Jumladan, qadimgi Misrda fir'avnlarning shu maqsaddagi istagini amalga oshirishda, Old Osiyo, Eron, Hindiston, Xitoy, antik davrning ilk markazi bo'lgan Egey madaniyatida afsonaviy allegorik umumlashma obrazlarga, shuningdek, qadimgi Gretsiya va Rimda mifologik idealizm bilan birga hukumdorlarni ulug'lashga xizmat qilgan.






Qadimgi dunyo ikki mintaqa – Sharq va G‘arb hududlaridagi bir biri bilan o‘zaro madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy aloqada bo‘lgan mamlakatlarning mahalliy san’ati bilan ajralib turadi. Mamlakatlarda mahalliy san’at an’analari mavjud bo‘lib, tarixiy tuzumga qarab uning g‘oyaviy va ijodiy uslubi ham o‘zgarib borgan. Masalan, Qadimgi Sharqda ko‘proq ramziy shakllar, amaliy bezakdorlik, shartli badiiy ifodaviylik, qat’iy belgilangan qanun-qoidalarga amal qilingan. Jumladan, Misr san’atida ilk podsholik davrida shu xususiyatlar ko‘zga tashlanadi. Yangi va so‘nggi podsholik davrlarida esa realistlik yondoshuvlar ham rivojlangan. G‘arb san’atida esa – qadimgi Gretsiya va Rimda mifologiya aynan hayotiy ko‘rinishda, aniq insonlar timsolida ifoda etiladi. Shakl realizimi, inson qomatining anatomik mutanosibligida aniq yechimga erishish kuzatiladi.

Qadimgi dunyo san’ati bu – sinfiy jamiyat san’atidir. Mamlakatlarda mulkiy tengsizlik rivojlanib, insonlar qul va hukumdorlardan iborat ikki asosiy tabaqaga ajralgan dastlabki boshqaruv jamiyatining badiiy estetik hamda g‘oyaviy-mafkuraviy ehtiyoji manbaidir. Qullarning jismoniy mehnati evaziga boyib, dabdabali hayot kechirgan quldor va amaldorlar o‘z saltanatini muhtashamlashga intilishi barobarida san’at va badiiy ijod rivojlanib borgan. Tasviriy san’at ibodatxonalar, saroylar, shahar ichidagi boshqa ma’muriy inshootlarni bezash va hukumdorlar kuch-qudratini aks ettirishga xizmat qilgan.

Agar quldorlik tuzimiga qadar san’at insoniyatning kundalik hayoti, ish qurollari va maishiy buyumlarini bezash bilan bog‘liq bo‘lsa, bu davrda u sinfiy harakterga chuqur kirib bordi. San’atning bosh vazifasi diniy va mifologik tasavvurlar qamrovida rivojlanib, tur va janrlar yuzaga keldi. Shuningdek, san’at sintezi – me’morlik, haykaltaroshlik, amaliy bezak san’atining o‘zaro uyg‘unlikdagi ta’sir kuchi ortib bordi. Quldorlik mamlakatlarining madaniyat

markazlari yuzaga kelib, mahalliy san'at an'analari shakllandi. Har bir madaniyat markazlarining san'ati bir-biridan farqlanuvchi o'ziga xos jihatlari kamol topdi.

Qadimgi Sharq hududida eramizdan avvalgi IV minginchi yillardan Misr podsholigi, Old Osiyoning Shumer, Akkad, Babil, Ossuriya, Urartu, Xett davlatlari, shuningdek Hindiston, Xitoy, O'rta Osiyo, keyinroq Eron imperiyasi va Janubiy-Sharqiy Osiyodagi podsholiklarda ilk sinfiy jamiyatga xos ko'hna madaniyat markazlari yuzaga kela boshladi. Mazkur podsholiklar san'atida voqea va xodisalarga nisbatan afsonavor yondoshish, majoziy timsollarda ulug'vorlikni ko'rsatish yetakchilik qiladi. Shu bilan birga, Misr va Old Osiyo mamlakatlarida inson tuzilishi, ayniqsa uning portretini hayotiy ko'rinishda ifoda etuvchi haykallar ham uchraydi. Biroq bu yo'nalish ayrim davrlardagina kuzatiladi.




Qadimgi davr Yevropa san'atini milodan avvalgi 3000 yillardan – milodiy V asrgacha O'rta Yer havzasi hamda Qora dengiz sohillaridagi Gretsiya va Rim davlatlari tashkil etadi. Bu davlatlar san'ati tarixda o'chmas iz qoldirib, keyingi Yevropa va jahon xalqlari san'ati va madaniyatiga kuchli ta'sir etgan. Shuning uchun ham biz qadimgi Yevropa san'atini o'rganganda avvalo ana shu xalqlar san'ati bilan tanishamiz. Bu xalqlar yaratgan san'atni odatda antik san'at deb nomlanadi va asosan, qadimgi Grek-Rim madaniyati va san'atiga nisbatan qo'llaniladi. Antik davrda me'morlik va u bilan uyg'un holda haykaltaroshlik keng rivojlangan. Qadimgi grek me'morligi e'lementlaridan hozirda ham jahon tajrijasida qo'llanilib kelinadi. Tasviriy san'atda yuskak mahoratga erishgan ijodkorlar tomonidan ishlangan haykaltaroshlik namunalari bugungi kunda ham tasviriyot asoslarini o'rganishda metodologik manba sifatida o'z qiymatiga ega.

Qadimgi dunyo xalqlari orasida Oʻrta Osiyo mamlakatlarining badiiy madaniyati oʻz oʻrniga ega. Jumladan, Oʻzbekistonning qadimgi Xorazm davlatida ibtidoiy jamoa davrining soʻngi bosqichlariga mansub Jonbos qala qadimgi meʼmorlik qoldiqlari, shuningdek, quldorlik davriga oid Amudaryoning quyi oqimidan topilgan tilla buyum va taqinchoqlar, Surxondaryo hududidagi Dalvarzintepa, Holchayon, Kampirtepa shahristonlarining meʼmorlik, tasviriy sanʼat va amaliy bezak sanʼatiga xos asori-atiqalari bizgacha yaxshi saqlanib qolgan. Bu topilmalar Oʻzbekiston hududidagi koʻhna sanʼatimiz rivojining ashyoviy dalili hisoblanadi. Shu bilan birga, qadimgi sanʼatimiz jahon sanʼati tarixida munosib ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Xorazmdagi Jonbos qalada eramizdan avvalgi IV-III ming yillardanoq sinchdan turar joy binolarini qurish, tomini yogʻoch va qamish bilan yopish malakasi shakllanganligi kuzatiladi.

Umuman aytganda, ibtidoiy jamoa davrining soʻnggi bosqichidan boshlab, yer yuzida ilk sinfiy jamiyatning shakllanishi davriga xos badiiy madaniyat jahon sanʼati tarixida qadimgi dunyo sanʼati deb yuritiladi. Ibtidoiy jamoa tuzimining tosh asri hali tugamay turib, mezolit (oʻrta tosh) davridanoq insoniyat tarixiy taraqqiyotida yangi ijtimoiy-madaniy munosabatlar koʻrina boshladi. Bu ayniqsa, qadimgi Sharq mintaqasining unimdor yerlari va daryo yoqalarida oʻtroq jamoatchilik markazlari yuzaga kelib, keyinchalik hududlarda sinfiy tabaqalashgan ilk davlatchilikka xos madaniyat oʻchoqlari vujudga keldi. Masalan, Nil daryosi atroflarida Misr podsholigi, Dajla va Frot daryosi oraligʻida Old osiyo davlatlari, Gang daryosi atroflarida Hindiston, Xuanxe daryosi vohasida Xitoy, Amudaryo va Sirdaryo oraligʻida Oʻrta Osiyoning eng qadimgi davlatlari tashkil topganligini shu oʻrinda taʼkidlash mumkin. Bu katta geografik hududda vujudga kelgan quldorlik davlatlarida meʼmorlik, haykaltaroshlik, devoriy rangtasvir, amaliy sanʼat va hunarmandchilik yaxshi rivojlandi. Ushbu koʻhna madaniyat Yevropaning Yegey dengizi orollari, Oʻrta yer havzasi hamda Qora dengiz atrofidagi qadimgi davlatlar oʻrtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlar asnosida maʼlum darajada bir-biriga ijodiy taʼsirini oʻtkazib keldi. Muxtasar qilib aytganda, qadimgi dunyo sanʼati mazkur davlatlarning yuzaga kelishidan boshlab, toki, milodiy asr boshlaridan yangi tarixiy tuzim – feodalizmning paydo boʻlishigacha kechgan yirik ijodiy davrni qamrab oladi. Mazkur davlatlar sanʼati keyingi mavzularda alohida bayot etiladi.

## 2 BOB

### QADIMGI SHARQDAGI QULDORLIK DAVLATLARI SAN'ATI



Insoniyatning tarixiy-madaniy taraqqiyoti tamaddunida qadimgi Sharq yerlarida eramizdan avvalgi taxminan 5000-4000 yillarda yuzaga kelgan quldorlik davlatlari san'ati muhim o'rin egallaydi. Bu mintaqada ibtidoiy davrda jamoa bo'lib hayot kechirgan odamlar uchun yangi va qulay sharoitlarga boy edi. Xususan, hududda yil fasllarining o'z maromida almashib turishi va ser quyoshligi dehqonchilik-chorvachilik ishlari hamda hunarmandchilik bilan shug'ullanishga keng imkoniyat yaratdi. Natijada daryo oqimi bo'ylab uning atrofidagi serunum yerlar jamoalarning doimiy yashash maskaniga aylanib bordi. Bir joyda utroq hayot kechira boshlagan kishilar dehqonchilik va chorvachilikda saqlangan ortiqcha maxsulotlarni taqsimlash va ulardan foydalanish borasida jamoaga yetakchilik qiluvchi shaxslarga zarurat tug'ildi. Shuningdek, odamlar yashaydigan manzilgohlar ko'payib, u yerlarda maishiy hayot va turmush xavfsizligi uchun eng kuchli va aqlli kishilar qabilaga boshchilik qilishini taqazo etdi. Natijada jamoada eng sodda sinfiylik nishonasi ko'rinishi boshlandi. Jamoa boshlig'i ko'pchilik kuchi bilan shaharni mustahkam devorlar bilan o'rab, boshqa qabilalar hujumiga qarshi mudofani ta'minladi va qo'rg'on ichida ham yirik qurilish ishlarini amalga oshirdi. Bu kabi ijtimoiy hayotning murakkablashib borishi natijasida jamoa boshlig'ining mavqeyi ortdi, boshqaruv imkoniyati kuchaydi va bu keyinchalik hududlarda quldorlikka asoslangan boshqaruv tuzumini vujudga keltirdi. Qadimgi Misr, Old Osiyo, Hindiston, Xitoy, Eron, O'rta Osiyo, Koreya, Indoneziya davlatlarida quldorlik tuzumi boshlanib, uning negizida madaniy hayot taraqqiyoti boshlandi. Bu borada ko'pchilik kuchi bilan bunyod etilgan me'morlik inshootlari qurilishi va ularni haykaltaroshlik namunalari bilan bezatilishi katta o'rin egallaydi. Qadimgi Misrda bunyod etilgan Piramidalar va Old Osiyodagi Zikkurat qurilishlarini shu o'rinda ta'kidlash mumkin.



Qadimgi Misr zamondosh mamlakatlar orasida mahalliy maktab an'analari keng rivojlanib, ijodiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan ko'hna madaniyat markazlardan biri sifatida insoniyat o'tmishida chuqur iz qoldirdi. Misr san'ati qadimgi Sharq xalqlarining badiiy-madaniyati fonida yaqqol ajralib turuvchi mahalliy uslubi, emotsional ifoda kuchiga egadir. Qadimgi misrliklar dunyoda ilk bor toshlardan mahobatli me'morlik binolarini bunyod etib, haykaltaroshlikda ruhiy ta'sirga ega bo'lgan realistik portretlar yaratish sir-asrorlarini o'zlashtirgan ijodkor xalq hisoblanadi. Misr san'ati jahon badiiy madaniyati sahnasiga ibtidoiy jamoa davridan keyin, yangi va dadil qadam bilan kirib keldi.



Jan-Fransua Shampol'on

Dunyo xalqlarining qadimgi san'ati tarixini o'rganish ham Sharqdan boshlanadi. Chunki, bu o'lkadagi mamlakatlar insoniyatning taraqqiyot tamaddunidagi eng yirik badiiy-madaniyat makoni hisoblanadi. Bu yerdan topilgan mahobatli me'morlik binolari (exrom, maqbara, sag'ana, ibodatxona va b), haykaltaroshlik va devoriy suratlar, amaliy san'at namunalari hamda insoniyat tarixidagi eng qadimgi hisoblangan rasmlil yozuvlar hanuzgacha olimlar nazaridan chetta qolmagan. Ilk bor Misr san'atini eng qadimgi namunalari hisoblangan ieroglifli yozuvlar XIX asr boshlarida fransuz olimi **Jan-Fransua Shampolon** tomonidan ilmiy o'rganilgan. Jumladan, "1820-30 yillarda Shampolon Misrga eskpeditiya uyushtirdi. U yerda bir qancha yodgorliklarni to'plab, ular to'g'risida ilmiy xulosalar berdi. 1851 yildan Misrda sistemati ravishda qazish ishlari olib borildi. Fransuz olimi O.Mariet Memfis yaqinidagi Sakkarada olib borgan qazish ishlaridan keyin Misr muzeyi va "Merosni o'rganish" jamiyatini ochdi... 19-asr oxiri va XX asr boshida Fransuz arxeologi

J.de Morgan va ingliz arxeologi U. Pitri Flinders qadimgi Misr fir'avnlari sulolasi hukumronligigacha bo'lgan davr va ilk sulola hukumronligi davrini o'rgandi"<sup>5</sup>. Shundan keyingi tadqiqotlarda ham Misr arxeologiyasini tadqiq etish davom ettirildi.

Odamlar yashashi uchun tabiiy iqlim sharoiti qulay bo'lgan Nil daryosi bo'ylarida eramizdan avvalgi 4000 yillik oxiri 3000 yillik boshlarida Misr xalqi shakllandi. Qadimgi Sharqdagi qudratli davlatlar orasida Misr alohida ajralib turadi. Nil daryosi atrofidagi unumdor yerlarda kichik hududiy jamoalar yuzaga keldi. Dehqonchilik qilish uchun kanallar qazib daryodan suv chiqarish va to'g'onlar qurish zarurati tug'ildi. Bu ishlarni urushlarda asir tushgan qullar kuchi bilan bajarilishi sinfiy tabaqalanishga va nihoyat, quldorlik tuzimi shakllanishiga olib keldi. Hukumdorning cheksiz hukumronligi ostida qullar mehnati bilan yirik qurilish ishlari olib borildi.





Misrliklar g'ayri tabiiy kuchlarni ma'lum bir qiyofa shaklida tasavvur qilib, hayvon, qush va o'simliklar timsoliga e'tiqon qilishgan.



<sup>5</sup> “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. М ҳарфи. Тошкент., 2008 йил. 642-бет


## Misrlıklar quyidagi tabiat kuchlari va hayvonlarga sig'inishgan



Misr san'ati tarixi beshta davrga bo'lib o'rganiladi:




## QADIMGI MISR PODSHOLIKLARI



### Ilk podsholik davri (I-II sulola, er.av.tax. 3000-2800 y)

Ilk podsholik davri ibtidoiy jamoa tuzumining so'nggi bosqichi va 1-2 dinastiyaning vujudga kelishi davriga to'g'ri keladi. Qadimgi Misr tarixiy taraqqiyotida sinfiy jamiyatga o'tish jarayoni boshladi. Qabila boshlig'ining mavqeyi va hurmati oshib bordi. Xatto qabila sardori o'lganidan keyin ham uni izzat-ikrom bilan dafn etishdi. Shu marosim bilan bog'liq holda Misr me'morligi shakllanib bordi. Bu Misrda eng qadimgi urf-odatlarining paydo bo'lishi bilan bog'liqdir. Jumladan, qabila boshlig'i olamdan o'tganidan keyin uning qabriga alohida e'tibor berib, me'morlik harakteriga muvofiq qabr uyi qurish urf bo'ldi. Bu yer ostiga to'rtburchak shaklda qurilgan va yon atrofi hom g'ishtlar bilan urilgan xona bo'lib, uning yerdan tepa qismi to'rtburchak shakldagi supa bilan ko'tarildi. Mastaba deb nom olgan bu qurilma kelgusida yaratilgan ulkan ehromlarni yuzaga kelishiga turtki bo'ldi. Bu odat faqatgina sardorlar uchungina emas, balki qabila a'zolari uchun ham ommalashdi. Faqat qabr uylar marhumning qabiladagi tutgan o'rni, mavqe'yiga qarab muhtasham yoki sodda ko'rinish kasb etdi. Marhumning

jamoadagi o‘rni qanchalik baland bo‘lsa, uning sag‘anasi ham shunchalik katta va me‘moriy ishlovga boy bo‘ldi. Misrlilar qabr uylarga marhumning shaxsiy buyumlari, aslahalari va ba’zi hollarda



Joser piramidasi. Miloddan avvalgi taxminan 2670 yil Sakkarada joylashgan.  
Gizada 15 km uzoqlikda. Balandligi 60-62 m

haykallari bilan qo‘shib ko‘mishgan, ayrimlarining devorlariga suratlar ishlashgan. Bu suratlarda narigi dunyo hayoti bilan bog‘liq voqeliklar tasavvur asosida ifoda etilgan.

Shu alfozda Misr me‘morligi va tasviriy san‘ati sulolalarning shakllanish davridan vujudga kela boshladi. Bu davrda yuqoridagi jarayon murakkab ko‘rinish kasb eta boshladi. Qabila boshliqlari endilikda podsho (fir‘avn) darajasiga ko‘tarildi. Shunga muvofiq me‘morlikda ham yuksalish davri boshlandi. Fir‘avnlr o‘zlari uchun ulkan ehromlar qurdirib, uning atrofida ibodatxona yoki diniy marosimlar o‘tkazish uchun



**Sfinks haykali. hajmi: uzunligi-73 m, balandligi-20 m**

muljallangan binolar qurilishiga e'tibor qaratdi. O'zining mahobatli haykallarini ehrom tashqarisi va ichiga o'rnatib, uning g'oyaviy ta'sir kuchi ta'sirida xalqni itoat qildirdi. Shu o'rinda III sulola fir'avni Joser taxminan 2670 yillarda qurdirgan (balandligi 60 metr) ehromini misol keltirish mumkin. Ehromni o'sha davrning mohir me'mori Imxotep tomonidan qurilganligi haqida aniq yozma ma'lumotlar bor. Ehrom yuqoriga tomon kichrayib boruvchi oltita supa (mastaba) lar birikmasidan tashkil topgan bo'lib, oldingi davrda yuzaga kelgan mastabalarning takomillashgan ko'rinishidek taa'ssurot beradi. Shuningdek, atrofida yaxlit majmua hosil qiluvchi diniy marosimlar uchun mo'ljallangan ibodat ham qurilgan. "Arxeologlar ibodatxona qazilmalari davomida dunyodagi eng qadimiy kolonnali zal qoldiqlarini topishdi. To'g'ri bu ustunlar odatdagidek dumaloq kolonnalar emasdi, faqat yarmilarigina devordan chiqib turardi, lekin shunisi ma'lumki, Imxotep grek arxitektorlaridan ancha avvalroq Doriy kolonnalarining o'zaro mos, uyg'un namunalarini yaratdi"<sup>6</sup>.

Qadimgi podsholik davrida Joser ehromidan keyin IV sulolaning Xufu, Xafra va Minkaura fir'avnlari hukumronligi paytida eng yirik piramidalari qurildi. Mazkur sulola fir'avnlari nomini greklar Xeops (Xufu), Xefren (Xafra), Mikerin (Minkaura) deb atashgan. Shu sababli piramidalar ko'plab manbalarda Xeops,

<sup>6</sup> Қадимги дунё мўжизалари / тузувчи М.Ахророва. – Т.: "DAVR PRESS", 2011.- 8 бет.

Xefren va Mikerin nomi bilan yuritiladi. O‘ziga xos afsonaviy me’morlik majmuasini tashkil etuvchi mazkur piramidalarning eng kattasi Xeops bo‘lib, har tomoni 233 metr dan



**Xeops piramidasi.** III ming yillikning birinchi yarim yilligi. Balandligi 147 metr ga yaqin. Tosh bloklari hajmi 2,5 tonna.

borat tag asosga balandligi 147 metr o‘lchamda qurilgan. Biroq toshlarning yemirilishi va ko‘chib ketishi natijasida hozirgi vaqtdagi balandligi 137 metrni tashkil etadi. Adabiyotlarda qayd etilishiga piramida qurilishida vazni 2 tonnadan og‘ir bo‘lgan 2300 000 ta tosh bloklari ishlatilgan. “Piramidaning kirish qismi uning shimoliy tarafida joylashgan. Bir necha zallar, galereyalar, himoya teshiklari fir’avn dafn etilgan xonaga eltadi. Fir’avn xosxonasi piramidaning qoq yuragiga joylashgan bo‘lib, u yerga faqatgina buyuk galereya orqali ko‘tarilgan zaldan kirib boriladi. Fir’avn tobuti xona devorlariga mos ravishda qizil granit bilan ziynatlangan. Xonaga kiraverishdagi 1,3 metr kenglikdagi o‘tkir qirrali tosh juda ajoyib ishlangan. Barcha ichki toshlar shunday terilganki, ularning orasiga qilich tig‘i ham sig‘maydi”<sup>7</sup>. Shunday ulkan sun‘iy tog‘ singari bunyod etilgan mazkur piramidalar majmuasi turli bino va inshootlar, daraxtlardan holi

<sup>7</sup> Дунё мўжизалари. Таржимон ва нашрга тайёрловчилар Муҳаммадюсуф Собиталиев, Музаффар халилов. – Т.: “Муҳаррир” нашриёти. 2011. 6-бет.

bo‘lmagan sahroning bepayon tekistliklari qo‘ynida yanada viqorli bo‘lib tuyuladi. Mazkur piramidalar qurilishi mummyolangan fir‘avnlarning jasadini ming yillar davomida saqlanishi bilan birga, ular odamlar ongida o‘z saltanatining qudratini namoyish etib, xalqni qo‘rquv va itoatda ushlab turish uchun qurilgan. Piramidalar oldidagi ulkan haykallar odamlarning ruhiy holatiga kuchli ta‘sir o‘tkazib, fir‘avni ilohiylikka dahldor podsho sifatida tan olishlari, undan qo‘rqishlari va bo‘ysinishlarini ta‘minlash uchun g‘oviy vosita bo‘lgan. Bu tushunchani odamlar ongiga singdirish uchun maqbara va ibodatxona devorlariga chizilgan fir‘avn qiyofasini oddiy odamlarga nisbatan bir necha barobar kattaroq qilib ishlanishi, turli xayvonlar timsolidagi mifologik obrazlar ifodasi ham xizmat qilgan.

Qadimgi Misr san‘atida diniy tushunchalar, afsona va mifologik timsollarning o‘rni katta bo‘lgan. Misrlilar Totemizm (odamlar bilan ayrim hayvonlar yoki o‘simlik dunyosi orasida g‘ayritabiiy aloqa, qon-qarindoshlik bor deb faraz qilish) va Anemizm (ajdodlar ruhlari, tiriklar tanasidagi jon ruhi, tabiat kuchlari, hayvon va o‘simliklarga sig‘inish), Fetishizm (jonsiz narsalarni g‘ayritabiiy kuchga ega deb bilib, tabiatdagi jonsiz predmetlarga sig‘inish) kabi eng qadimgi aqidalarga e‘tiqod qilgan. Shu diniy tushunchalar Misr tasviriy san‘atiga singib borgan. Totemizmga xoslik – odam gavdali, boshi esa



**Mikerin piramidasi.** Hajmi: balandligi 66 m, tag asosining kengligi 108,4 m



**Xefren piramidasi.** Miloddan avvalgi XXVI asrlarda qurilgan. balandligi 143,5 m, tag asosining uzunligi 215,3 × 215,3 m

bo'ri, sher, mushuk, eshak ko'rinishidagi tasvirlarda uchraydi. Bo'ri – **Anibus**, ya'ni o'liklar olamining podshosi, Sher boshli – **Soxmet**, ya'ni urush ilohasi va Mushuk boshli – **Bast** kabi ma'budlarga sig'ingan. Shuningdek, **Ra** – olamga issiqlik va yorug'lik beruvchi quyosh siymosi hamda **Amon** – xuddi Ra kabi quyosh xudosi, qirg'iy boshli qiyofada bo'lib, anemizmgga xos e'tiqod hisoblanadi.



Giza piramidalar majmuasi. Xeops, Mikerin, Xefren.




**Tasviriy san'at.** Misr tasviriy san'ati kohinlar tomonidan belgilangan qat'iy qonun-qoidalarga asoslangan. Xususan, bo'rtma tasvirlar va devoriy suratlarda fir'avnlarning kuch qudratini ifodalash yetakchilik qiladi. Bu borada fir'avnlarni afsonaviy timsollar bilan bog'liq voqealarga bo'y sindirilgan syujetlar ifoda etiladi. Jumladan, bunday tasvirlarda davlat xomiysi hisoblangan mifologik timsollar – qush (lochin), o'simliklar (nilufar guli), hayvonlar (bo'ri, sher, ilon) qiyofasini uchratish mumkin. Mavjud qoidalarga ko'ra fir'avnlarning gavdasi oddiy odamlarnikidan bir necha barobar katta qilib ishlangan. Bu oddiy odamlar bilan fir'avnlarning orasidagi ijtimoiy-huquqiy farq (tengsizlik) ni anglatib turgan. Tasvirlar aksariyat hollarda simmetrik mutanosiblikka asoslangan bo'lib, gavda old



**Narmer plitasi.** 1-dinastiya, miloddan avvalgi 3000 yillar.

tomondan, bosh va oyoqlar esa yon tomonlarga tasvirlanadi. Qadimgi podshohlik davriga mansub Narmer plitasi deb nomlanuvchi marosimlar uchun mo'ljallangan bo'rtma tasvirli namunani shu o'rinda misol keltirish mumkin. Narmer plitasining ikki tomoniga ham bo'rtma tasvirlar tushirilgan bo'lib, unda fir'avn Narmer hayoti bilan bog'liq ko'rinish aks ettirilgan. Old tomoni uch qismga ajratilgan kompozitsiyadan iborat bo'lib, har bir qismi umumiy g'oyani aks ettiradi. O'rta qismi kompozitsion markaz hisoblanadi, unda yuqori Misr fir'avni Narmer quyi podshohlik hukumdorini mag'lub etganligi tasvirlangan. Narmer qo'lini yuqori ko'tarib, o'z cho'qmog'i bilan asr bo'lgan raqibini urmoqda. Raqibi boshining yuqorisida maxv etilgan podsho davlatining ramzi – nilufar gullari ustida yuqori

Misr xomiysi – lochin qushi turibdi. Lochin qushi nilufar gullari ustida turishi bosib olingan davlat ustidan hukumdorlik nishonasidir. Kompozitsiyaning tepa qismida fir'avning kuch-qudratiga dohil bo'lgan shoqdor buqalar ifoda etilgan. Kompozitsiyaning quyi qismida yengilgan quyi Misr jangchilarining qochayotganli asar g'oyasini yanada yorqinlashtiradi. Plitaning ikkinchi tomonidagi tasvirlar kompozitsion tuzilishiga ko'ra to'rt qismga ajratilgan bo'lib, g'oyaviy jihatdan yaxlit mazmuni ifodalaydi. Yuqori qismida birinchi tomonidagi ikki shoqdor buqa takroran aks ettirilgan. Uning pastida g'alaba qozongan fir'avn Narmer yengilgan jangchilar tomon borayotgani aks ettirilgan. Narmer gavdasi boshqa odamlarga nisbatan kattaroq qilib ishlangani uning ijtimoiy mavqe'yini ifodalab, hukumdorligiga ishora etadi. Plitaning kompozitsion markazi keyingi qismdagi tasvirlardan iborat. Unda bo'yni gavadasidan bir necha barobar uzun bo'lgan ikkita afsonaviy hayvonlar ko'rinishi asosiy diqqat-e'tiborni o'ziga tortadi. Bu ikki hayvon bo'yinlarining bir-biriga o'ziga xos dekorativ uslubda chirmashib turishi juda mahorat bilan amalga oshirilgan. Buning funksional va badiiy-g'oyaviy tomonlar mavjud. Funksional tomoni – ular bo'yinlarini o'zaro chirmashtirib turishi natijasida hosil bo'lgan chuqurchada marosimlarda bo'yoq qorishtirish uchun mo'ljallangan. G'oyaviy xususiyati esa fir'avn Narmer quyi va yuqori Misr yerlarini birlashtirib, markazlashgan yirik davlat tushganligini anglatadi. Kompozitsiyaning eng pastgi



Sakkaradagi firaun Joser  
haykali, fragment,  
III-dinastiya, er.av.3-ming  
yillik boshlari



Xafra exromidan topilgan firaun  
Xafra haykali, IV dinastiya,  
er.av.3 ming yillik birinchi  
yarmi




qismida o‘z kuchini namoyon etayotgan fir‘avning qudrat ramzi hisoblangan buqa tasviri tushirilgan.

Bu davrda kulolchilik dastgohi ixtiro qilinib, sopol buyumlar yasala boshlandi, toshga ishlov berish hunari o‘rganildi. Tasviriy san‘atda diniy tushunchalarning ta‘siri va fir‘avnlarning qudratini namoyon etish va mifologik obrazlar ifodasi yetakchilik qildi. San‘at ijodkorlari diniy tushunchalar, xalq og‘zaki ijodi bo‘yicha haykaltaroshlik va rangtasvirda kompozitsiyalar yaratdilar.

Qadimgi podsholik davrida ko‘plab dumaloq haykallar ijod qilingan. Ular to‘liq figurali va byustlardan iborat bo‘lib, aksariyati fir‘avn va amaldorlar qiyofasini gavdalantiradi. O‘sha davrga mansub Sakkaradan topilgan III dinastiya fir‘avni “Joser haykali” (mil.av. 3 minginchi yillar boshi), Giza ibodatxonasidan topilgan IV dinastiya fir‘avni “Xafra haykali” (mil.av. 3 minginchi yillarning birinchi yarimi), taxminan Xafra deb ataluvchi IV dinastiya fir‘avni haykali (mil.av. 3 minginchi yillarning birinchi yarimi), “Amaldor Ranofer haykali” (V dinastiya. mil.av. 3 ming yillik o‘rtalari), “Amaldor Kaaper haykali” (Sakkara. V dinastiya, mil.av. 3 minginchi yillar o‘rtasi), “Amaldor Anxxafa byusti” (Giza, IV dinastiya. mil.av. 3 minginchi yillarning birinchi yarimi) kabi haykallar shular jumlasiga kiradi. Mazkur haykallar harakatsiz biroz qotib qolgan ko‘rinishda ishlangan. Bu hol me‘morlikda bo‘lgani kabi haykaltaroshlik ham yuqori tabaqa vakillari uchun xizmat qilganligidan dalolat beradi.

Devoriy suratlarda esa faqatgina rasmiy tasvirlar emas, balki erkin mavzularga ham murojaat qilinganligi kuzatiladi. Masalan, Sakaradagi V dinastiyaga mansub “Turnalar” bo‘rtma tasviri (3 mil.av. minginchi yillar o‘rtasi) hamda Medume sag‘anasidagi “G‘ozlar” devoriy tasviri (III dinastiya, mil.av. 3 minginchi yillar boshi) ni shu o‘rinda ta‘kidlash mumkin. Tasvirlarda qushlar guruhi o‘ziga xos dekorativ tarzda ifodalangan. Bir xil ko‘rinishli tasvirni ritmik



Fir‘avn Amenxotep III haykali, XII dinastiya, mil.av. 19 asr.

holda bir necha bor takroran ishlanishish bu tasvirlar uchun xosdir. Suratni to‘rt momonini to‘g‘ri chiziqlar bilan teng bo‘laklarga ajratib, diogonal chiziq o‘tkazilsa tasvirning kompozitsion joylashuvi yaqqol namoyon bo‘ladi. Unda bir ko‘rinishda ishlangan g‘ozlar to‘rt bo‘lakka ajralgan holda o‘ziga xos ritmik asosda joylashgani ko‘rinadi Bu hol devoriy suratlar shunchaki tasodifan betartib holda emas, balki qat’iy kompozitsion tuzilishga asoslanishi seziladi. Suratning yana bir badiiy yechimi shundaki, yuqori va pastki gorizant bo‘ylab ikkita g‘ozning bir tomonga qarab turishi va ikkita yakka g‘ozlarning o‘zaro teskari joylashuvidadir. Tasvirda go‘yoki, ikki juft g‘ozlar kartinaga kirib kelayotgandek, alohida tasvirlangan ikkita g‘ozlar esa undan chiqib ketayotgandek taa’ssurot uyg‘otadi. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, qadimgi podsholik davridan tasviriy san’atda aniq kompozitsiya qonunlari asosida ijod qilingan.

Shuningdek, devoriy tasvirlarda o‘ziga xos yashirin kompozitsiyaga ham guvoh bo‘lish mumkin. Masalan, Sakaradagi V dinastiyaga mansub “Turnalar” bo‘rtma tasvirini turnalar joylashuvi bo‘ylab to‘g‘ri chiziqlar (namunadagi qizil va ko‘k) o‘tkazib, ularning kesishma nuqtalarini (namunadagi yashil) o‘zaro tutashtirsak, ko‘z o‘ngimizda qadimgi podsholik davrida urf bo‘lgan ulkan piramidalarni eslatuvchi bir necha shakllar namoyon bo‘ladi. Bu holat yuqorida ta’kidlangan g‘ozlar tasvirining diogonal chiziqlari kesishuvidaga ko‘zga tashlanadi.




Sakkaradagi qabir uydan topilgan nomalum haykal. V dinastiya. Er.avv. 3 ming yillik o‘rtalari, Kair Muzevi.

### **O‘rta podsholik davri (XI-XII sulola, er.av. tax. 2050-1700 y).**

O‘rta podsholik davrida Misrning nomlar deb ataluvchi mayda qabilalari hamda qo‘shni mamlakatlar bilan o‘zaro janglar avj olgan edi. Misr hududiy joylashuviga ko‘ra janubdan Nubiya, g‘arbdagi cho‘lda Liviya hamda Sharq saxrosidagi Arabiston mamlakatlari bilan chegaradosh edi. Arabiston saxrosidan o‘tgan yo‘l orqali Finay yarim oroliga borilardi. Finay orolidan shimolda Falastin va Suriya mamlakatlari joylashgandi. Misr shu davlatlar orasida eng qudratlisi bo‘lgan.

Misrlıklar shuningdek, oʻrta podsholik davrida Finay yarim oroli, Liviya, janubiy Falastin va Nubiyaning shimoliy yerlarini bosib olgan. Meʼmorlik va tasviriy sanʼatda shu vaqtdan yangi ijodiy oʻzgarishlar sodir boʻla boshlagan.



Xetshepsut ibodatxonasi. Dayr-al-Baxri

Misr meʼmorligida yirik piramidalar qurilishi asosan qadimgi podsholik davrida avj pallasiga chiqqani maʼlum. Piramidalar hajmi juda katta boʻlgani bois, uni qurish uchun koʻplab ishchi kuchi va mablagʻ sarf etilgan. Qurilishlarni amalga oshirish uchun “Odamlar (qullar, erkin dehqonlar va hunarmandlar) shu piramidani qurish uchun haydab kelingan. Bu esa davlat ekonomiyasiga taʼsir etmay qolmadi, xalq gʻalayonlariga sabab boʻldi. Shuning uchun V dinastiya firʼavnlari uncha katta boʻlmagan piramidalar qurdira boshladilar”<sup>8</sup>. Avvalgi majmualarda piramidalar asosiy planni egallagan boʻlsa, oʻrta podsholikdan boshlab ibodatxonalar qurish etakchi oʻringa koʻtarildi. Firʼavnlr oʻz shaxsiyatini ulugʻlashda meʼmorlik va tasviriy sanʼat vositasidan foydalanishni davom ettirdi. Bu davrda ibodatxonalar devori va ustunlari bezagiga eʼtibor ortdi. Dekorativ boʻrtma tasvirlar va devoriy suratlar ibodatxonalarning ajralmas qismiga aylanib bordi. Meʼmorlikda qoya ichini oʻyish natijasida hosil qilingan xonalarning qoʻllanilishi, tashqi tomondagi ayvon va ustunlar bilan oʻralgan hovli qurilishiga

<sup>8</sup> H.Абдуллаев. Санъат тарихи 1-Т. - Т.: “Ўқитувчи”, 1987 й. Б-25.

e'tibor berildi. Shu xususda Liviya tog' bag'rida joylashgan fir'avn Mentuxotep I maqbara majmuasini misol keltirish mumkin.

Ibodatxona tuzilishi jihatidan Joser piramidasini eslatuvchi ikki qavatli (stupa shakliga o'xshash) to'rtburchak (ikkinchi qavati kichrayib borgan) ko'rinishda bo'lib, yuqori qismida kichikroq piramida joylashgan. Bu uslub keyingi jahon me'morligida keng tarqalgan gumbazli maqbaralarning ibtidosidek taa'ssurot uyg'otadi. Binoning har bir qavati ustunlar qatori bilan o'rab chiqilganligi antik grek me'morligidagi peripter uslubini eslatadi. Bu uslub qadimgi misr ustalarining ijodiy salohiyati jahon me'morligi rivojiga ma'lum qadar o'z ta'sirini ko'rsatganligini anglatadi.

Tasviriy san'atda ibodatxonalarga qo'yish uchun mo'ljallangan fir'avnlarning to'liq figurali haykallari ishlandi. Ijodkorlar inson yuz tuzilishini to'liqroq ifodalashga intildi. Tasvirlanuvchining harakteri, ichki olami va ruhiy kechinmachini ham ko'rsatishga harakat qildi.



Karnakdagi Amon Ra ibodatxonasi

### Yangi podsholik davri (XVIII-XX sulola, er.av. tax. 1580-1070 y.)

Eramizdan avvalgi XVIII asrda ijtimoiy qarama-qarshiliklar, mulkiy tengsizliklar natijasida Misrning markaziy qismi zayiflashadi. Mayda nomlarga bo'linib ketgan podsholik asr oxirlarida Giksos qabilalari tomonidan zabt etildi. Faqat Fiva shahri xukumdorlarigina mustamlakachilarga bo'y sinmaydi. 1700 yildan toki 1750 yillargacha ular hukumronlik qiladi. Bu paytda Misrning iqtisodi va madaniyati susaydi. Vaqt o'tishi bilan bosqinchilar zulmiga qarshi kurashish uchun nomlar xukumdori Fiva shahri fir'aviniga birlashdi. Giksoslarga qarshi kurashda fir'avn Yaxmos I bosqinchilarni tor-mor etishga muvaffaq bo'ladi va XVIII sulola hukumronligi ostida yangi podsholik asoschisiga aylanadi. Shundan

keyin Misr podsholari o‘z hududini kengaytirish maqsadida qo‘shni Nubiya va Old Osiyo davlatlarni bosib olishga kirishdi. Bir necha janglardan keyin misrliklar Nubiyani ham o‘ziga qo‘shib oldi. Miloddan avvalgi 1500 yillarda keyin fir‘avn Tutmos III Falastinni istelo qilishga erishdi. Misr yerlari kengayib, xatto Yefrat daryosigacha bo‘lgan



**Luksordagi Amon ibodatxonasi, XVIII dinastiya, er.av. 15 asr**

hududlargacha borib yetdi. Bosib olingan yerlardan ko‘plab boylik va qullarga egalikni qo‘lga kiritgan Misr hukumdorlari shahar qurilishiga e‘tiborni kuchaytirdi. Bu davrda Fiva shahri Misr san‘ati taraqqiyotda muhim o‘rin egalladi. Geksoslar davrida buzilgan imorat va ibodatxonalar qayta tiklandi, yangi uslubdagi yirik binolar qurildi. Jumladan, Fivada podsho saroyi, Amon Raga atab mahobatli ibodatxona qurdiradi. Fir‘avn va koinlar hashamdorlik, go‘zallik va boylikka intilishi san‘at ijodkorligini rivojlantiradi. Yangi podsholik davrida Misr san‘ati yuqori cho‘qqiga erishdi.

## Yangi podsholik uch davrga bo'linadi



Me'morlik. Yangi podsholik me'morligi har qaysi davrdagidan ham hashamdor ko'rinishga ega bo'ldi. Fivada avvalgi me'morlikdan tubdan farq qiluvchi yangi qurilish elementlari kirib keldi. Endilikda me'morlik majmualari asosini tashkil etuvchi yangi tipdagi ibodatxonalar qurilishi shahar ko'rkini oshirdi. Ibodatxonalarda keng qo'llanilgan ustun qatorlar va devor yuzalari fir'avnlarni hayoti bilan va ularni kuch-qudratini namoyon etuvchi bo'rtma suratlar bilan shu qadar bezatildiki, me'morlik, devoriy rangtasvir va haykaltaroshlik uyg'unligida yaxlit majmua bunyod etildi. O'ndan ziyod hashamdor ibodatxona va binolardan iborat bo'lgan Karnak me'morlik majmuasini shu o'rinda ta'kidlash mumkin.

Mohir ustalar tomonidan qurilgan bu me'morlikdagi tasviriy san'at namunalari Misr tarixini o'rganish manbalaridan hisoblanadi. Asrlar davomida turli ustalar tomonidan qurilgan bu majmua XVIII sulola oxirlarida murakkab tuzilishni tashkil etadi. Qurilishning birinchi katta qismi XVI asr oxirida fir'avn Tutmos I davrida (me'mor Ineni) katta ibodatxona qurilgan. Ibodatxona fasadi Nil daryosiga qaragan bo'lib, old tomonida 23 metr balandlikdagi obelisk qad ko'targan. Majmua avvali Amon-Ra ibodatxonasi bilan boshlanib, o'ng tomondan sfinkslar alleyasi orqali fir'avnlarni maqbarasi tomon boriladi. Alohida va uzviy qo'rilgan ibodatxona va maqbaralar umumiy yaxlit majmuani tashkil etadi. Sfinkslar alleyasidan bosh pilon orqali enli zalga o'tiladi, keyin kichikroq pilon, to'rtburchak shakldan iborat xovli va ustun qatorlar orqasida mahobatli Tutmos haykali o'rin olgan. Karnak majmuasining Amenxotep ibodatxonasi oldidagi ulkan pilon Amenxotep III davrida qurilgan.

Karnakdagi Amon ibodatxonasi pilonidagi rel'efda (XVIII dinastiya, mil.av. 15 asrning ikkinchi choragi) Tutmos III ning dushmanlar ustidan qozongan g'alabasini madx etuvchi voqelik o'yib ishlangan. Unda dushman qo'shinlari juda mayda qilib tasvirlanishi fir'avn gavdasini ulug'vorlashtiradi va kuch-qudratni bo'rttirib ko'rsatadi. Shuningdek, pilon yuzasidagi ieroglifli yozuvlar ham o'ziga xos bezak bo'lib xizmat qiladi.

“Yangi podsholikning shaklanish davrida Fiva me'morligi va u bilan bog'liq mahobatli haykaltaroshlik maktabi yetakchi o'rin egallaydi. Aynan Fiva – Misrning poytaxti bo'lgani bois, bosh ibodatxona va maqbaralar uchun ko'plab haykallar ishlandi. Bu borada XVIII sulolaga mansub Dayr-al Baxridagi Xatshepsut ibodatxonasiga o'rnatilgan haykallar harakterlidir. Ibodatxonaga 200 dan ortiq haykallar o'rnatilganligi, Fivaning badiiy hayotida katta voqea ekanligini ko'rsatadi”<sup>9</sup>. Ibodatxoananing turli joylariga Xatshepsut va uning rafiqasi hamda Asirus va sfinkslar haykali o'rnatilgan. Haykal portretiga xos – keskin va o'tkir nigohli pistoqi ko'zlar, yoysimon cho'ziq qoshlar, qirra burun, kichik og'iz shakllari keyingi haykallar uchun ham namuna bo'lib qoldi. Biroq har bir haykal o'ziga xosligi bilan bir-biridan ajralib turadi. Mazkur haykallar ibodatxona bezasining eng harakterli qismi bo'lgan.

Me'morlik va haykaltaroshlikda ijodiy faollik kuchaydi, realistik uslub puxta o'zlashtirildi. Rasmiy qonun-qoidalarga bo'y sinuvchi tasvirlardan farqli o'laroq, zodagonlar hayotiga bag'ishlangan devoriy suratlar keng tarqaldi.




Malika Nefertita portreti

<sup>9</sup> Всеобщая история искусств. Т-1. «Искусство» 1956 г. С-212.

“Yangi podsholik davri san’atidagi bu xislatlar islohotchi fir’avn Exnoton davrida o‘zining eng rivojlangan davrini boshidan kechirdi”<sup>10</sup>. Miloddan avvalgi XV asr oxiri XIV asr boshlariga mansub mazkur bosqich Exnaton davri deb ataladi. Bu davrda fir’avnlarning oilaviy haykallarini ishlash odat tusiga kirdi. Haykaltaroshlikda portret janri yuksak cho‘qqiga erishdi. Shu o‘rinda Karnakdagi “Amenxotepa IV (Exnaton) haykali” (XVIII dinastiya, mil.av.1400 yillar), “Malika Nefertita portreti” (haykaltarosh Tutmes (Amarna), XVIII dinastiya, mil.av.1400 yillar), Firavn “Exnaton portreti” (XVIII dinastiya, mil.av.1400 yillar), Malika “Nefertita portreti” (haykaltarosh Tutmes (Amarna), XVIII dinastiya, mil.av.1400 yillar boshi), “Exnatonning qizi portreti” (XVIII dinastiya, mil.av.1400 yillar), “Tutanxamon portreti” (mil.av.14 asr) kabi haykallarni hamda “Exnaton qizlari” (fragment Axetaton saroyi devoriy surati (Amarna), hajmi 22 sm. XVIII dinastiya. mil.av. 14 asr boshi), “Tutanxamon rafiqasi bilan bog‘da” (Fiva yaqinidagi Tutanxamon sag‘anasidagi rel’ef, XVIII dinastiya, mil.av. 14 asr) kabi devoriy surat va bo‘rtma tasvirlarni misol keltirish mumkin.



Exnatonning qizi portreti. XVIII-dinastiya, mil.av.1400 yillar boshi. Berlin.



Fir’avn Exnaton portreti. XVIII dinastiya. Mil.av. 1400 yillar. Berlin.

<sup>10</sup> Н.Абдуллаев. Санъат тарихи 1-Т. - Т.: “Ўқитувчи”, 1987 й. Б-32





Qadimgi Sharqdagi Old Osiyo mamlakatlari badiiy madaniyati ham jahon xalqlari san'ati tarixida o'z o'rniga ega. Bu hududdagi qadimiy mamlakatlarda boshqa davlatlarda bo'lgani kabi me'morlik va tasviriy san'at keng rivojlangan. Tasviriy san'atning haykaltaroshlik turida relief va dumaloq haykallar ko'plab ijod qilingan. Ularda o'sha davr xukumdorlari bilan birga mifologik timsollar hamda ramziy ma'no kasb etuvchi turli obrazlar talqin etilgan. Bu o'lka san'ati ham qadimgi Misr singari o'ziga xos badiiy maktablari va ularning ijodiy an'analari bilan alohida ajralib turadi.


Qadimgi Old Osiyo mamlakatlari O'rta Yer dengizining sharqiy qismida va kichik osiyoning markaziy tog'li hududlarida hamda Dajla (Tigr) va Frot (Efrat) nomli ikki daryo oralig'idagi juda katta geografik hududni egallagan.<sup>11</sup> Bu manzildagi Shumer, Akkad, Ossuriya, Urartu, Xet, Elam, Ur, Bobil kabi qadimgi davlatlar ikki daryo orasida joylashganligi uchun Mesopotamiya (ikki daryo oralig'i) mamlakatlari deb yuritiladi. Mazkur davlatlar san'ati tarixi eramizdan avvalgi 5000-4000 yillardan 539 yillargacha bo'lgan uzoq davrni qamrab oladi.

Old Osiyo san'ati mesopotamiyada yuzaga kelgan davlatlarning xukumronlik paytiga qarab quyidagi davrlarga ajratish mumkin:

1. Eramizdan avvalgi 4000 yillar oxiri – Shumer podsholigi davri;
2. Eramizdan avvalgi XXIV-XXII asrlar – Akkad podsholigi davri;
3. Eramizdan avvalgi 1ming yilliklar – Ossuriya podsholigi davri;
4. Eramizdan avvalgi VII asr oxiri – Bobil podsholigi.

Eramizdan avvalgi 4-1minginchi yillarda janubiy mesopotamiyada Shumerlar manzilgozlari, keyinroq esa Shumer davlati yuzaga keldi. Mamlakatning shimoliy qismiga ko'chmanchi Akkad chorvodor qabilalari o'rnamshdi. Akkadlar Miloddan avvalgi 3 minginchi yillar oxirida Shumerlarga qo'shilib ketadi va mesopotamiyani to'liq egallab oldilar. Keyinroq Bobil, Mitani, Ossuriya, mavjud bo'lgan. Eramizdan avvalgi 2 minginchi yillarda kichik osiyo hududida, keyinroq shimoliy Siriyada xetlar mamlakati mavjud bo'lgan. Shimoliy Sharqda, Arman tog'larini egallagan holda Urartu davlati bo'lgan.

<sup>11</sup> Shimoldan Armaniston tog'lari, janubdan Fors qo'ltig'lari, Sharqdan Eronning tog'li viloyatlari, G'arbdan Suriya yerlaridagi qadimgi davlatlar Messopotamiya – ikki daryo oralig'i (Frot va Dojla daryolari) deb atalgan. U hozirgi Iroq Respublikasi hududiga to'g'ri keladi.



1 minginchi yillarning birinchi yarmida Urartu asosan Old osiyo tarixida muhim o‘rin egallagan. Ikki daryo oralig‘ining G‘arbida 1ming yillikda ma‘lum vaqtgacha Palestina, Finikiya, Siriya qad ko‘targan. Sharqda Eron hududi kengliklarini egallagan qadimgi Elam, keyin Midiya va Persiya (Eron) davlatlari mavjud bo‘lgan.

Ikki daryo oralig‘ining tabiiy iqlim sharoiti yashash uchun juda qulay bo‘lgan. Daryo suvining toshishi natijasida yer namlanib, dehqonchilik uchun unumdor maydonlarni paydo qillan. Yerning namligi bois imoratlar ham tepaliklarga qurilgan. Shunday bo‘sada, bunday iqlim me‘morlik binolari bizgacha saqlanib qolishiga imkon bermagan. Yerning namligi sababli me‘moriy imoratlar yemirilgan. Bundan tashqari urush va bosqinchiliklar natijasida ham ko‘plab yodgorliklar vayron bo‘lgan. Shu boisdan Old Osiyo mamlakatlarining eng qadimgi san‘ati va me‘morlik yodgorliklari juda kam miqdorda yetib kelgan. Biroq, o‘sha paytning san‘at tarixini o‘rganishga imkon beruvchi bir qancha tarixiy yodgorliklar, sopol idishlar va haykallar saqlanib qolgan.

Mesopotamiyaning eramizdan avvalgi 4 ming yillik boshidan 3 ming yilliklarga xos san‘atida Ubayd (4 ming yillik boshi) va Uruk davrlari (4 ming yillikning o‘rtalari) alohida ahamiyat kasb etadi.

Ubayd davrida odamlar ovchilik, baliqchilik, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan, davrning oxirida tosh asridan temir asriga o'tilgan. Arxeologik qazishmalarda rangli kulolchilik buyumlari topilgan; bu topilmalar sarg'ish-yashil loydan qo'lda yasaliib, geometrik shakllardan tashkil topgan bezaklari jigarrang-qizil bo'yoqlar bilan pardozlangan. Ularga odamlar, hayvonlar, qushlar va o'simliklarning sxematik tasvirlari tushirilgan. Bu uslubga o'xshash sopol buyumlar Yaqin sharqdan to Finikiyagacha, Siriyadan to Erongacha, shuningdek, O'rta Osiyo va Suzagacha (Eron kengligi) bo'lgan hududlardan ham topilgan.

Ubayd me'morligi juda sodda, qamishdan to'qilgan oddiy uylardan iborat bo'lgan. Uylar issiq va mustahkam bo'lishi uchun loy bilan suvalgan. Qamishlar dumaloq shaklda terilib, tepasi birlashtirib bog'langan, keyinchalik to'rtburchak shaklga ega bo'lgan. Bu hol sopol idishlar, turli muhrlar va rel'eflardagi tasvirlarda o'z aksini topgan.

Uruk davrida kulolchilikda yangi texnik uslub paydo bo'ldi. Idishlar endilikda kulolchilik dastgohida qizil loydan ishlandi. Buyumlar bezagi oddiy bo'lgan, biroq shakli va funksiyasi mukammallashdi, ushlaydigan quloqlari va suv quyadigan uzun burunlari yasala boshlandi.


Bu davrda me'morlikning mahobatli ko'rinishi shakllana boshladi. Shu xususda, Urukdan topilgan ibodatxona qoldiqlarini misol keltirish mumkin. U baland xomg'ishtdan qilingan platformada joylashgan bo'lib, unga zinalar orqali chiqilgan. To'g'ri to'rtburchak shaklida platforma devorlari tekist emas, imorat oq rangga bo'lgan. Urukdan topilgan

“Qizil imorat” deb atalgan yana bir mahobatli me'morlik yodgorligi e'tiborlidir. U boshqalarga o'xshamaydi. Imoratning devorlari yarim ustun shakliga ega bo'lib, geometrik naqshlar bilan bezatilgan. Devorlarida loydan ishlangan mazoyika parchinlari mavjud. Binoda qizil rang ishtiroki ko'pligi sababli imorat uzoqdan qizil rangda ko'rinadi. Bu davr me'morligida devoriy suratlar kam uchraydi.

Haykaltaroshlikda portretchilikka e'tibor berilmaydi, umumiy etnik obraz yaratiladi xolos. Mahobatli dumaloq haykal bo'lmagan, ayol yoki erkaklar haykali, shuningdek turli hayvonlar haykali uchraydi. Uruk davriga mansub boshi toshdan,



Sargon boshi. Qadimgi Nineva.  
Mil.av. 23 asr



### Zikkurat. Ur. Pekonstruksiya.


tanasi loydan, toji esa tilladan yasalgan va koʻzlari inkrustatsiya qilingan haykal topilgan. Haykallar aksariyat hollarda devorlar yuzasiga yopishgan boʻlgan. Boʻrtma tasvirlar esa kulolchilik buyumlarini, muhrlarni bezashga xizmat qilgan. Boʻrtma tasvirlar Misrlklarnikiga nisbatan boʻrtiribroq ishlangan, qatʼiy belgilangan uslubiy anʼanaga boʻy sinmagan.

Bizgacha oʻsha davrga mansub muhrlar yetib kelgan. Ularda turli xil hayvonlar va odamlar suratlari ishlangan. Bu muhrlarga qarab oʻsha davrdagi odamlar hayoti toʻgʻrisida maʼlum qadar tasavvur hosil qilish mumkin. Har bir yer egasining oʻz muhri boʻlgan. Bu davrda yana yozuv paydo boʻlgani ham katta ahamiyatga ega. Ular piktografik yozuvlarda yozishgan.


#### **Qadimgi Shumerda ilk sulolalar davri sanʼati**

Ikki daryo oraligʻida yuzaga kelgan Ur, Urug, Lagash kabi Shumerning shahar-davlatlari qadimgi sharq sanʼatida oʻz uslubi bilan ajralib turadi. Davrning iqtisodiy-ijtimoiy sabablari bu davlatlarning oʻzaro birlashishini taqazo etadi. Bu hol baʼzida bu kuch ishlatish yoʻli bilan ham amalga oshirilgan.

Eramizdan avvalgi uch ming yillikning ikkinchi yarmida Sargon I Mesopotamiyaning katta qismini birlashtirib Shumer-Akkad podsholigini tuzdi. Ularning sanʼatida ilohiy obrazlar odam, hayvon va afsonaviy mahluqlar koʻrinishida boʻlgan. Shumerliklar mixxat yozuvini bilishgan, muhrlarga shu yozuv bilan hoʻjayinning ismi yozilgan. Bu paytda quldorlik jamiyatini podsholik hukumdorligi boshqargan. Davlatlar orasida tez-tez urushlar boʻlib turgan. Bu esa meʼmorlikka oʻz taʼsirini koʻrsatgan. Ayrim binolarning buzilib ketishiga olib kelgan.



Ur shahridagi Zikkurat (er.av. XXI asr)



El-Obeyddagi ibodatxona. Rekonstruksiya.

Shumerliklar me'morlikda ham mohir bo'lganlar. Imoratlar muhofazalanishga mo'ljallab qurilgan va qasr ko'rinishida bo'lgan. Binolar baland tepaliklarga, xom g'isht ba'zida pishiq g'ishtlardan qurilgan. Ularning o'rtasida hovli bo'lib, atrofi imoratlar bilan o'ralgan. Bu saroy qurilishlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Shumerning Shimolida esa ochiq hovli o'rniga yopiq markaziy xona qurilgan. Eramizdan avvalgi uch minginchi yillarda El-Obeydda hosildorlik xudosi Nin-Xursagga qurilgan ibodatxonaning qoldiqlari topilgan. U kengligi 32x 25 m bo'lgan platformada joylashgan. Platforma devorlari vertikal ustunlar bilan bo'lingan, eng pastki qismiga qora bitum surtilgan, teparog'i oq va shu tariqa gorizantal tarzda qilingan.

Natijada vertikal va gorizanal kesishuvlaridan iborat ritm paydo bo'lgan. Birinchi bo'lib imorat bezagida dumaloq haykaltaroshlik va rel'ef ishlatilgan. Kiraverishda ikki tomonda Sher haykali (yog'ochdan qilingan) bo'lib, ko'zlari inkrustatsiya qilingan va osilib turgan tili rangli toshlardan ishlangan. Imoratning zinasi oldida esa Buqa haykali o'rnatilgan. Uning tepasida misdan qilingan gorel'ef, yotgan buqa tasvirlangan. Ikkita tekis mozoyika uslubidagi rel'ef, qora shifer plastinkaga oq perlamutr yotqizilgan. Ularning birida ho'jalik hayoti, birida esa ketma-ket yurib ketayotgan turli muqaddas qush va hayvonlar tasvirlangan. Kirish joyida bo'rtma tasvirlar bo'lgan, ularning afsonaviy qushi Imdugud bo'lgan va geraldika uslubida ishlangan. Ichida ikkita hayvon figurasidan yasalgan ustun bor. Ichi oddiy bo'lib devoriy suratlar bilan bezatilgan va Nin-Xursag haykali o'rnatilgan. Shumerda mahobatli haykaltaroshlik bo'lmagan, 30-40 sm bo'lgan toshdan qilingan. Asosan Xudoga iltijo qilib o'tirgan holda tasvirlangan.



El-Obeyd saroyidagi friz, qishloq hayoti ko'rinishi, er.avv. 2600 y.

Ularning san'ati ikkiga bo'lib o'rganilgan: Shimoldagilarini soch-soqollari uzun, qomati kelishgan bo'lgan; janubdagilari esa kal, soch-soqoli siyrak, yelkador, past bo'yli bo'lgan. Ularning san'atida portretchilik bo'lmagan, releflari esa dumaloqlashtirilgan. Bu davrda me'morlik binolari qurilishi alohida ahamiyat kasb etadi. "Old Osiyo san'atida ham monumental me'morlik yetakchi o'rinni egallagan, san'atning boshqa turlari u bilan bog'liq holda rivojlangan. Mesopotamiya me'morligining o'ziga xos xarakterli tomonlari eramizdan avvalgi

4 ming yillikda Shumer madaniyati shakllangan paytlarda yuzaga keldi”<sup>12</sup>. Shumer davri me'morligining dastlabki ko'inishini sun'iy yoki tabiiy tepaliklar ustiga qurilgan xashamdor saroylar tashkil qiladi. Saroy qurilishida shom g'isht asosiy material sifatida qo'llanilgan, lekin devor sirtlari pishgan g'ishtlar bilan qoplab chiqilgan, ba'zan esa bu qoplamalar tosh parchinlaridan ham iborat bo'lgan. Saroy ichini bezashda bo'rtma haykaltaroshlikdan foydalanilgan. Mazkur haykallarning o'ziga xos jihati ko'zlarni inkrustatsiya qilinishida, qiyofalarnig bir muncha shartli tuzilishga egaligida ko'rinadi.

**Akkad san'ati.** Eramizdan avvalgi 24-asrda Akkad nomli Semit shahari qad ko'taradi. U o'ziga ikki daryo oralig'ining katta qismini bo'y sindiradi. Kuchli davlatga aylanadi. Akkad san'atida realistik yo'nalishlar kuchli bo'lgan. Ularda san'atning barcha turlari rivojlangan. Haykaltaroshlikda portretchilik paydo bo'ladi. Erkin kompozitsiya rivojlana boshlaydi. Bu davrning eng nodir yodgorligi Naramsin podshosining g'oliblik stelasidir. Stelaning balandligi ikki metr. Unda Naramsinning tog'li qabilalar ustidan g'olib chiqqanligi tasvirlanadi. Bunda kompozitsiyaning birligi va aniqligi, yangi sifati va uslubiy farqi mavjud.

Akkad podsholigi haykaltaroshligida Shumer davriga nisbatan realistik yondoshuv bir qadar rivojlangan. Ayniqsa, dumaloq haykaltaroshlik yaxshi rivojlanadi. Inson yuz tuzilishi hayotiy ko'inishga yaqin olinganligi hamda xukumdorlar portretida dekorativ sersoqol ko'inishning yaqqol ko'zga tashlanishida seziladi. Masalan, eramizdan avvalgi 23-asrga mansub Nineviyadan topilgan Sargon I (misdan qilingan) qadimiy portretini shu xususda ta'kidlash mumkin.

**So'nggi Shumer (Gudea davri va 3-suloladagi Ur san'ati).** Eramizdan avvalgi uch ming yillikning ikkinchi yarmida (er.av 23-22 asr) Gutiyalar bosib oladi va 100 yilcha hukumronlik qiladi. Lagash hukumdori Gudea davrida qurilishga va eski imoratlarni tiklashga katta e'tibor beriladi. Mahobatli haykaltaroshlik rivojlanadi. Haykallar ko'pincha Xudoga bog'ishlanib, ibodatxonalarga qo'yilgan. Ular asosan toshdan yasalardi. Balandligi 3 metrgacha bo'lgan. Nisbat o'lchamlari ancha cho'zilgan. Portretchilik bor, kiyimlarining skladkalari ham qilingan. Odam gavdasi aniqroq berilgan.

### **Xammurapidagi Babil san'ati**

Eramizdan avvalgi 26-16 asrlarda Babil davlati Old osiyodagi qudratli mamlakatga aylanadi. Bu mamlakat Shumerning Shimoliy hududida joylashgan.



Naramsin stelası. Er.av. 23 asr.

<sup>12</sup> Н.Абдуллаев. Санъат тарихи 1-Т. - Т.: “Ўқитувчи” 1987 й., б- 34.


Bu o'lkada ham Shumer va Mixxat yozuvlari rivojlangan. Bizgacha Xammurapaning qonunlari bitilgan, podsho tasviri tushirilgan bo'rtma tasvirlar yetib kelgan. Bu tasvirlarda qadimgi Bobilliklarning turmush tarzi, tarixiy voqealarini ma'lum qadar tasavvur etishga yordam beradi. Shu xususda "Xammurapi Shamash iloxi oldida" nomli stelasini misol keltirish mumkin. Unda mixxat yozuvi bilan qoplangan va quyosh xudosi Shamashdan qonunlarni qabul qilib turgan Xammurapi podshosi tasvirlangan. Stelada Xudo o'tirgan holda, Xammurapi turgan holda tasvirlangan. Xudo unga hukumdorlik belgisini va ilohiy aylanani bermoqda. Podshonig gavdasi kichikroq qilib tasvirlangan.

Xammurapi davrida Mari davlatining yodgorliklari ham tegishli. U Bobilning tepasida Frotta joylashgan. Ibodatxona va saroy qoldiqlari topilgan. Imoratlar ochiq xovli atrofida joylashgan. Saroy qasr ko'rishiga ega bo'lib, qalin devorlar bilan o'ralgan. Devorlardan yarim ustunga o'xshash minoralar bo'rtib chiqqan. Saroyning tantanali qismi bilan turar joylar orsidagi joylashgan saroy maktabi qizil oxraga ega.



O'tirgan Gudea haykali. Er.av. 22 asr.





## QADIMGI ERON VA O'RTA OSIYO SAN'ATI

Qadimgi dunyo san'ati tarixida Sharq xalqlarining Eron va O'rta Osiyo mamlakatlari badiiy-madaniyati ham munosib o'rin tutadi. Bu mamlakatlarda ham ilk sinfiy jamiyatning shakllangan davrida me'morlik va tasviriy san'atda nodir san'at namunalari ijod qilindi.

Qadimgi Sharqdagi eng yirik quldorlik davlatlaridan biri Eron (Axamoniylar) podsholigi hisoblanadi. Ushbu podsholikni yuzaga kelishi Ahamoniylar sulolasiga mansub Kir II nomi bilan bog'liq. Eramizdan avvalgi VI asr o'rtalaridan Midiya, Babil hamda O'rta Yer xavzasidagi ko'plab hududlar ustidan hukumronlik o'rnatib, qudratli podsholikka asos solgan. Uning davlat hududini kengaytirish ishlari Doro I tomonidan davom ettirdi. U Orol dengizidan Xind okeanigacha, Kichik Osiyo, Misr hamda Xitoy chegaralarigacha bo'lgan katta geografik hududlarda hukumronlik o'rnatdi.

Ahamoniylar podsholigi eramizdan avvalgi V asr boshlarida eng qudratli davlatga aylanib, san'at taraqqiyoti ham yuqori cho'qqiga ko'tarilgan. Saqlanib qolgan namunalar – me'morlikda saroy va maqbaralar qurilishi ancha rivojlangani, qimmatbaho maishiy kundalik buyumlar, harbiy aslahalar yasash hamda bino devorlarini rangtasvir bilan bezash bilan birga, bo'rtma haykaltaroshlikda ham katta tajribaga erishilganligidan dalolat beradi.

Qadimgi Eronda me'morlik ancha faol kechgani kuzatiladi. Ahamoniylarning markaziy shaharlari bo'lgan Pasarga, Persepol va Suzada qurilgan hashamdor saroylar shu o'rinda e'tiborlidir.



Buqa boshli kapitel. Persepol.  
Marmar. hajmi 5,80 m. er.av. 5 asr.

Eron me'morligi o'sha davrning boshqa Sharq mamlakatlari bilan ijodiy yaqinlikda bajarilgani seziladi. Masalan, eramizdan avvalgi VI—IV asrlarda qurilgan Persepol saroyi tuzilishiga ko'ra Ossuriya me'morchiligiga o'xshab zinapoyali tepalik ustiga qurilgan. Zinapoyaning yon yuzalariga hukumdorlar xayotiga oid hodisalar bo'rtma tasvirlarda ifodalangan. Saroy darvozasining yon tomoniga afsonaviy tus berilgan xo'kiz tanali, qanotli va odam boshli haykal o'rnatilgan. Shuningdek, chiqish qismida ham huddi shunday haykallar mavjud bo'lgan. Saroy ayvonlarida ustunlardan keng foydalanilgan. Bu ustunlar kapiteli o'ziga xos dekorativ ahamiyatga ega bo'lib, unda ho'kizlar qiyofasi tasvirlangan. Saroyning barcha xona va devorlariga bo'rtma tasvirlar ishlangan. Ayniqsa, zinapoyaning yon tomonida aks ettirilgan podsho faoliyatiga doir rangli bo'rtma haykallar tantanavor ruhda bajarilgan. Bu tasvirlarda turli mamlakatlardan kelgan elchilar shohga sovgalar in'om etayotgani ifodalangan (21-raem).



Yirtqich bilan olishayotgan podsho. Persepoldagi bo'rtma tasvir. Er. av. 6-asr oxiri 5-asr boshlari.

Qadimgi Sharqdagi eng yirik quldorlik davlati bo'lgan Ahamoniylar imperiyasi eramizdan avvalgi 331—330 yillarda grek hukumdori Aleksandr Makedonskiy qo'shinlari tomonidan tormor etilishi bilan ellinistik dunyoga qo'shilib ketdi.

Ibtidoiy jamoa davridan keyin yer yuzida tabiiy iqlim sharoiti o'troqlashga mos va geografik qulaylikka ega bo'lgan hududlarda qadimgi davlatlar shakllangani ma'lum. O'rta Osiyo mintaqasi ham shu imkoniyatlarga ega bo'lganligi bois, bu hududda ham qadimdanoq shahar-davlatlar yuzaga kelgan.



Sovg'a olib kelayotgan elchilar. Persepoldagi bo'rtma tasvir. Er. av. 6-4 asr boshlari.

O'rta Osiyoning janubiy tomonlarida eramizdan avvalgi III-II minginchi yillardan shahar tipidagi yashash manzillari yuzaga kela boshladi. O'rta Osiyoda sinfiy jamiyat mustahkamlanishi bilan shahar-davlatlar ham rivojlanib bordi. Shahar markaziga hukmdorlar uchun hashamatli saroylar qurilib, devorlari turli suratlar, geometrik nahshlar bilan bezatilgan. Eramizdan avvalgi I minginchi yillarda O'rta Osiyoda dastlabki ibtidoiy davlatlarning shakllanish davrida Xorazmda paydo bo'lgan Zardushtiylik madaniyati keng tarhaldi. Eramizdan avvalgi VII asrlarda Zardushtiylik diniga xos ko'mish marosimiga mo'ljallangan astadonlar hadimigi O'rta Osiyo san'atida muhim o'rin egallaydi. Kulolchilik texnologiyasda bajarilgan bunday buyumlar yuzasi zardushtiylik odatlariga bag'ishlangan bo'rtma tasvirlar ishlangan<sup>13</sup>.

Hadimigi O'rta Osiyo mamlakatlari san'atida Ahamoniylarning ijodiy ta'siri seziladi. Masalan, eramizdan avvalgi VI-IV asr O'zbekistondagi Ko'zalihir, Kallalihir, Turkmanistondagi Erka hal'a me'morligi topilmalari shundan dalolat beradi. O'rta Osiyoda ham shahar hurilishiga katta e'tibor berilgan. Shaharlar darvoza va minorali mudofa devori bilan o'ralgan. Shahar markaziy hismida sun'iy tepalik ustiga hurilgan saroy yoki ibodatxona bo'lgan. Saroy hurilishida Eron me'morligida bo'lgani




Afsonaviy yirtqich. Baqtriyaga mansub bronza havkal. Er.av.4asr. London. Britaniya muzeyi.



Qadimgi Nisadan topilgan Riton. Janubiy Turkmaniston. Er.av. 2asr.

<sup>13</sup> Қаранг. Н.Абдуллаев. Санъат тарихи. Тошкент., “Ўқитувчи” 1987 й., 43-44 бетлар.

kabi ustunlar kapiteli ho'kiz tasviri bilan uyg'unlashtirilgan.



Tuproq-qal'a saroyining ichki ko'rinishi.  
Rekonstruksiya

Qadimgi O'rta Osiyo xalhlari san'atining VI-IV asrlarida Axamoniylar ta'siri, keyinroh esa ellinistik san'at ta'siri kuzatiladi. "Ahmoniylar davri (er.av. VI-IV asrlar) san'ati Amudaryo hamda Oks hazinalaridagi mo'jaz buyumlar O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i hududida ellinistik davrga hadar o'ziga xos haytarilmas san'at rivojlanganligining isbotidir. Ammo Makedoniyalik Aleksandr O'rta Osiyoni bosib olgandan so'ng, hudud Ellada san'ati an'analari ta'siri hamrovida holdi" <sup>(14)</sup>

Qadimgi O'zbekistonsan'ati ellinizm ta'siriga uchragandan keyingi davrda haykaltaroshlikda grek ijodiy an'analari ko'zga tashlanadi. Grek-Baqtriya davlatiga mansub ko'plab haykallarda buni kuzatish mumkin.

<sup>14</sup> Эдвард Ртвеладзе, Дмитриос Янгос. Ўзбекистон санъатида эллинизм аъаналари. Каталог. Т., 2001 й., "SAN'AT" журнали нашриёти, 5-Б.

## QADIMGI HINDISTON SAN'ATI

Hindiston qadimgi Sharqning eng ko'hna madaniyat markazlaridan hisoblanadi. Boshqa Sharq mamlakatlarida bo'lgani kabi Hindistonning tarixiy tamaddun ibtidosi eramizdan avvalgi 3-2 ming yilliklarga borib taqaladi. Hind vodiysida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar eramizdan avvalgi 2500-1500 ming yilliklarga mansub badiiy madaniyat markazlarini aniqlagan. Bu Hind daryosi atrofida qadimgi xalqlar yashagan Moxenjo-Doro va Xarappa manzilgohlaridir. O'sha vaqtlardagi jamoalarda ilk sinfiy munosabatlar yuzaga kela boshlagan. O'sha davrlarga oid topilmalar, boshqa mamlakatlar bilan olib borgan savdo aloqalari shundan dalolat beradi.


Moxenjo-Doro qadimda shaharsozlik yaxshi rivojlangan. XX asr boshlarida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida, ko'chalar aniq reja asosida qurilganligi, binolar 2-3 qavatli bo'lib, pishiq gishtdan qurilganligi aniqlangan. Saqlanib qolgan saroy va turli jamoachilik binolar qoldiqlari, dunyoning eng qadimgi shahar tizimi bo'lganligini anglatadi. Moxenjo-Doro va Xarappadan bronza asriga mansub yuksak mahorat bilan bajarilgan turli buyum va amaliy san'at namunalari topilgan. Qadimgi Hindiston san'ati taraqqiyoti davomida Mesopotamiyaning Shumer va Akkad mamlakatlari bilan savdo-sotiq aloqalari asnosida (Mohonjodoro madaniyati va san'ati) uyg'unlik kasb etib bordi. Hindistonning me'morlik va tasviriy san'ati milodiy 1 asrlarda qadimgi Gretsiya va O'rta Osiyo mamlakatlari bilan ham ijodiy aloqasi seziladi.

Eramizdan avvalgi bir minginchi yillarda Gang daryosi vohasida quldorlik sinfiy jamiyati yuzaga kela boshladi. Bu o'rinda Gang vohasidagi Magadxa podsholigi davrida san'at va madaniyat rivojini alohida ta'kidlash mumkin. Ayni vaqtlarda qadimgi hind xalqlari hayoti, urf-odati, afsonaviy qahramonlar haqidagi «Mahabxorat» va «Ramayana» nomli epik dostonlar yaratilgan.

Kadimgi Hindiston san'atining taraqqiy etgan davri eramizdan avvalgi 272—232 yillarda Ashoka imperatorligi davriga to'ri keladi.



Koxin haykali.  
Moxendjo-Doro.Er. av.  
3000-2000 y.



Sanchidagi kata stupa. Er. av. 3 asr.

Bu davrda xalq etiqodida buddizm ta'limoti keng tarqalgan. Bu ta'limot keyinroq Sharqdagi Xitoy, Yaponiya, qisman O'rta Osiyoga ham kirib kelgan. Mazkur diniy ta'limotning Hindistonda rivojlanishi natijasida u bilan bog'liq qurilish binolari – ibodatxonalarning yangi tiplari yuzaga keldi. Tasviriy san'atning haykaltaroshlik turi yanada faollashdi. Me'morlikda stupa deb ataluvchi qurilma vujudga keldi.

Masalan, eramizdan avvalgi 3 asrda qurilgan Sanchidagi katta stupa e'tiborlidir.

Ctupa aylana shaklidagi supacha ustiga o'rnatilib, yarimaylana ko'rinishda qurilgan. Stupaning yarimaylana shakli osmonni gumbazga o'xshashiga qiyoslangan. Uning to'rt tomoniga bo'rtma tasvirlardan iborat bezakli darvozalar o'rnatilgan. Buddizmni targ'ib qilishda san'at vositasidan keng foydalanilgan. Stambx deb ataluvchi bezakka boy ustunlarni shu o'rinda misol keltirish mumkin. Stambxlarning yuqori qismi dumaloq haykallar bilan tugallangan bo'lib, unda kuch-qudrat ramzi bo'lgan hayvonlar tasvirlangan. Masalan, Sarnatxdagi stambxda to'rtta sherlar tasviri ifodalangan.



Sanchidagi kata stupa. Er. av. 3 asr. hajmi 2,13 m.

## QADIMGI XITOIY SAN'ATI

Xitoy hududida aholi quyi poleolit davridan yashay boshlaganligi arxeologik izlanishlar orqali aniqlangan. Xitoyning sharqiy hududida Xuanxe daryosi atroflarida odamlar yashashi uchun qulay tabiiy sharoit eramizdan avvalgi 3 ming yilliklarda odamlar yashab, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'illanishiga imkon yaratgan. Keyinroq bu yerlarda qadimgi Sharqning Misr, Mesopotamiya va Hindiston mamlakatlarida bo'lgani kabi san'at va madaniyat o'chog'i yuzaga keldi.

Qadimgi Xitoy badiiy madaniyati uzoq davr bo'lib eramizdan avvalgi 5 ming yilliklarga yaqin davrni tashkil etadi. Xitoyda jamoatchilikning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi boshlangan davri esa eramizdan avvalgi 2 ming yilliklarga to'g'ri keladi. Bir necha olimlar fikriga ko'ra quldorlik munosabatlari shu vaqtlardan boshlanib, eramizdan avvalgi 1 ming yillik o'rtalaridanoq feodal munosabatlar shakllana boshlaganligi aytiladi. Olimlarning boshqa qismi esa qadimgi davr to'liq va eramizdan avvalgi 3 asrdan milodiy 3 asrgacha Xan hukumronligi vaqtida quldorlik tuzumi mavjud bo'lganini ta'kidlashadi. Harqalay san'at tarixida – avvalgi an'analar bilan o'zaro aloqada rivojlangan Xan davri san'ati dalolatiga ko'ra, Xitoy san'ati va madaniyatida eramizdan avvalgi 1 ming yillik o'rtalarida yangi munosabatlar paydo bo'lgan. Xitoy madaniyati vujudga kelishining muhim asoslari, qadimgi madaniyat markazlari paydo bo'lib, to'xtovsiz rivojlanganligida. Bu Xitoy san'ati an'alarining muhim darajasini belgilaydi.


Qadimgi Xitoy madaniyati juda yuqori darajaga borib yetgan. Ancha vaqtlar oldinoq Xitoy olimlari astronomiya, matematika, tibbiyot va boshqa ilm-fanlarda ko'plab muhim natijalarga erishanlar. Eramizdan avvalgi 2 ming yilliklarda Xitoyda ieroglifli yozuvlar paydo bo'lgan. Qadimgi madaniyat – mamlakatdagi podsholiklar birlashib, yagona Xitoy davlati tashkil etilgan Sin va Xan davrida bir qadar gullab yashnadi.



Yuy tipidagi bronza idish. Shan (In) davri. Er.av. 2 ming yillik

Qadimgi Xitoyda hunarmandchilikning kulolchilik turi yaxshi rivojlangan. Eng qadimgi kulolchilik buyumlari eramizdan avvalgi 3 ming yilliklarga mansub bo'lib, qo'lda yasalgan va naqshlar bilan bezatilgan. Naqshlari sodda ritmik chiziq va shakllardan tashkil topgan yaxlit kompozitsion tuzilishga ega. Bu davrdagi kulolchilik buyumlari «Yanshao madaniyati yodgorligi» tarkibiga kiritiladi. Chunki ularning aksariyati Yanshao manzilidan topilgan. Shu sababli topilmalar ham shu joy nomi bilan ataladi. Bu madaniyat Xitoy kulolchiligining eng dastlabkisi hisoblanadi.

Eramizdan avvalgi 2 minginchi yillarga kelib, sopol idishlar bilan birga bronzadan yasalgan buyumlar ham yasala boshlandi. Bu buyumlar sopol idishlardan yaqqol yajralib turadi. Ular shaklu-shamoyilga boy bo'lib, yuzasiga bo'rtma naqshlar tushirilgan. Mazkur buyumlar eramizdan avvalgi 2 minginchi yillarda Xuanxe daryosi voxasida yuzaga kelgan ilk Shan (yoki In) sulolasi davrida yaratilgan.



Yuy tipidagi bronza idish. Yanshao madaniyatigo oid buyum Er. av. 3 ming yillik. Pekin. Gugun muzeyi



Tszun tipidagi bronza idish. Shan (In) davri. Er. av. 2 ming yillik



### 3 BOB

## ANTIK DAVR SAN'ATI



Antik san'at tarixi uyg'onish davridan arxeologik yangi kashfiyotlar asnosida o'rganila boshlangan. XV-XVI asrlarda qadimgi grek-rim yerlarida qazilma ishlari olib borildi. XVIII asrga kelib esa antik san'atga qiziqish yanada ortdi. Xattoki, antik madaniyat an'alariga tayanuvchi klassitsizm uslubi ustivor darajaga erishdi. Vinkelman birinchi topilgan grek-rim san'ati namunalari umumiyashtirib "Qadimgi dunyo san'ati" deb nomlangan kitob yozdi. Shuningdek, Genrix Shliman ham yoshligidanoq antik adabiyotga katta qiziqish bilan qaraydi. Otasi Shlimanga Gomerning kitobini sovg'a qiladi. Shundan keyin antik madaniyatga qiziqishi yana ortadi. Gomerning kitobi unga kuchli ta'sir etadi va tasavvurini yanada boyitadi. Uning tasavvurida asar qahramonlari afsonaviy emas, go'yoki real shaxslardek taa'ssurot qoldiradi. Shliman o'z bilimlarini chuqurlashtirib, kelgusida Troya shahrini topishni maqsad qiladi. U yoshligida yetim qolib, juda qiyin hayot kechirishiga qaramay, turli tillarni – grek, ingliz, fransuz, nemis va sharq tillarini o'rganadi. U uddaburonligi tufayli tezda boyib ketadi. U greklar tarixini yanada chuqurroq o'rganadi. Troya shaxrini topishga intiladi va maqsadiga yetadi.



Antik iborasi lotincha "Antikvus" – qadimgi so'zidan olingan bo'lib, grek va rimliklarning o'tmish madaniyatini o'rganish uchun uyg'onish davri gumanistlari tomonidan berilgan ta'rifdir. Antik dunyoning asosiy qismini Grek va Rimliklar hamda ular bilan uzoq vaqt madaniy aloqada bo'lgan Yevropa, Osiyo, Afrika qabilalari tashkil etadi. Antik davr tarixi milodiy 476-yili Rim imperiyasining inqirozga yuz tutishi va yangi feodal tuzimning boshlanishi bilan tugallanadi.

Antik davr ikki turdagi manbalarga bo'lib o'rganiladi: birinchisi –daliliy-ashyoviy; ikkinchisi



– yozma manbalar. Ilk antik davrni ashyoviy dalillar – madaniy yodgorliklar (meʼmorlik, haykaltaroshlik, rassomlik, hunarmandchilik va b) asosida oʻrganiladi. Quldorlik jamiyati paydo boʻlgandan keyingi davrlarni asosan yozma manbalar – shaxsiy, rasmiy, maxsus hujjatlar, ilmiy, adabiy va falsafiy adabiyotlar orqali oʻrganiladi. Qadimgi hujjatlarning bir qismi toshlarga, metallarga va kulolchilik buyumlariga oʻyib ishlangan. Maʼlum qismi papirusga tushirilgan boʻlsa, yana bir qismi qoʻlyozma koʻrinishida yetib kelgan. Mazkur manbalar antik grek-rim tarixini har tomonlama oʻrganishga xizmat qiladi. Ilk antik sanʼatni oʻrganishda esa Egey davrining arxeologik topilmalari asosiy manba hisoblanadi. Oʻsha topilmalarda rassom va hunarmandlarning ismlari ham yozib qoldirilgan. Egey davriga mansub sanʼat asarlarini maʼlum bir uslubiga qarab, shartli ravishda nomlanadi. Bu nomlarni buyumlarni birinchi tomilgan joyiga qarab, masalan “Kameres” uslubi, “Dipalon” uslubi yoki asarlar turkumidagi asosiy yodgorlik syujetiga qarab, masalan “Dengiz uslubi” deyiladi. Bundan boshqa yana rassomlarning ismini asarning ishlangan davriga qarab yoki antik davr adabiyotida asarga berilgan baho orqali bilish mumkin.


Antik madaniyatning dastlabki pallasiga xos dastgohli rangtasvir asarlar butunlay yo‘qolib ketgan, muallifi noma‘lum bo‘lgan ayrim haykallargina saqlanib qolgan. Imperatorlik va respublika davrida rimliklar grek san‘atini yuksak baholaganlar va juda ko‘p san‘at asarlarini olib ketishgan. Greklar yaratgan san‘at asarlaridan juda ko‘plab nusxalar olishgan. Greklarning ko‘plab suratlari Rim, Pompey, Gergulamadagi devoriy suratlarda takrorlanishini shu bilan izohlash mumkin. Ammo rimlik rassom va haykaltaroshlarning ismlari bizgacha juda kam miqdorda yetib kelgan. Chunki rimliklar rassom va haykaltaroshlarni oddiy hunarmandlar qatorida ko‘rishgan. Antik Gretsiya va Rim san‘ati keyingi davrdagi Yevropa mamlakatlari san‘ati rivojiga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatgan. Bugungi kunda ham antik san‘atdan meros qolgan ijod namunalari musavvirlar diqqatini jalb qilib kelmoqda.



**Genrix Shliman**  
(1822-1890)



**Artur Djon Evans**  
(1851-1941 y)






## EGEY MADANIYATI YOKI KRIT-MIKEN SAN'ATI



Antik davrning eng qadimgi madaniyati “Egey” yoki “Krit-miken” deb nomlanadi. Egey dengizi turli orollarga boy bo‘lib, shu orollarda yuzaga kelgan san‘at va madaniyat umumlashtirilib egey madaniyatini tashkil etadi. Krit shu hududdagi eng yirik orol bo‘lib, qolganlari mayda orollar hisoblangan. Bu yerda turli qabilalar bo‘lgan, ular kemasozlik, astrologiya va sayyohlik yaxshi rivojlangan hududda yashagan. Kritning Peloponnes yarim oroli va Misr bilan aloqasi yaxshi edi. Qadimgi Sharq mamlakatlari bilan savdo-sotiq va madaniy aloqa almashish jarayonida xalqlarning san‘at va madaniyati bir biriga o‘z ta‘sirini o‘tkazgan. Egey madaniyati ilk bor 1920 yili ingliz olimi Artur Evans tomonidan o‘rganilgan. U dengiz tevaragidagi orollarga mansub




**Knoss sarovidan topilgan buqa boshi**





**Knoss saroyi qoldiqlari**



**Kritdagi Knoss saroyining ichki ko'rinishi va devoriy suratlaridan namunalar. Er.avv. XVI asr**

yodgorliklarni “Egey madaniyati” deb nomlangan va tadqiq etgan. Egey madaniyatining markazi Krit bo‘lganligi, keyinchalik u grek materigiga – Peloponnes yarim orolidagi Mikenaga ko‘chganligi hamda bu yerlardan ko‘plab topilmalar qazib olinganligi uchun “Egey” madaniyati bilan birga “Krit-miken” ham qo‘shib aytiladi. Egey orollari ichida birinchi bo‘lib Krit orolida bronza asrida san‘at va madaniyat muttasil rivojlanib borgan. Kritdagi turli yangiliklar boshqa orollarga tarqalgan. Bu yerda haykaltaroshlik, me‘morlik va rangtasvir rivojlangan. Evans Kritning eramizdan avvalgi XVI asrga mansub markaziy saroy joylashgan eng qadimgi shahar yodgorliklarini topadi. Bu laberent deb nomlangan Knoss saroyi qoldig‘idir. Uning umumiy maydoni 10 000 kv.m bo‘lib yuzlab xonalari mavjud bo‘lgan.



**Knoss sarovidan topilgan devoriy rangtasvir.**




**Kritdagi Knoss saroyining ichki ko‘rinishi va devoriy suratlaridan namunalari. Er.avv. XVI asr**

Saroy markazida katta xovlisi (50x28 m) bo‘lib, u saroyini sharqiy va g‘arbiy qismlarga ajratib turadi. G‘arb tomonida saroy bo‘lgan, uning 22 ta omborxonasi bo‘lgan. Sharqiy qismida esa malika xonalari va tantanalarga mo‘ljalangan zali bo‘lgan. Saroy ikki qavatli bo‘lib, ustunlar bilan bezatilgan. Saroy usturlari o‘ziga xos ko‘rinishga ega bo‘lib, pastdan tepa tomonga kengayib borgan va qizil rang


bilan bo‘yalgan. Uning bir tomonida ho‘jalik xonalari bo‘lsa, ikkinchi tomoni mehmonxona va turarjoy bo‘lgan. Devorlari ho‘kiz va afsonaviy hayvonlar tasviri bilan bezatilgan. Yana bir zalida podsho taxti va loydan ishlangan haykallar topilgan. Haykallarning birida ilon ushlab turgan, boshida esa qush tasviri ifodalangan. Saroy devorlarida bo‘rtma tasvirlar ham mavjud bo‘lib, ular yorqin ranglangan. Misrliklarnikiga nisbatan qarama-qarshi ranglar ko‘proq qo‘llanilgan. Tasvirlarni yirik kontur chiziqlar bilan bezash mahalliy xususiyat hisoblangan.



**Knoss saroyidan topilgan devoriy rangtasvir.**



**Knoss saroyidan topilgan devoriy rangtasvir.**  
**Nodir namuna.**




Krit kulolchilik buyumi



Eramizdan avvalgi XIV asrda Krit madaniyati tanazzulga uchrab, o'z o'rnini Peloponnes yarim orolidagi Mikena va Trinf kabi markaziy shaharlarga bo'shatib beradi. Trinf va Mikena shaharlari kuchli markaz sifatida rivojlanadi. Ilk mikena davrida poydevori toshdan, devorlari loydan qurilgan uylar bo'lgan. 2200-2000 yillarda odamlar ko'payadi. Bir-necha xonalardan iborat bo'lgan tosh asosli g'ishtdan qurilgan uylar topilgan. Bu o'sha davrga kelib qurilish texnikasi rivojlanib borganini anglatadi. O'sha davrga oid sopol buyumlar kulolchilik dastgohida ishlanmagan va pishirish pechlari ham bo'lmagan. Shunga ko'ra ularning shakli turlicha bo'lib, chizmalar va o'yiqlar bilan bezatilgan. Keyinroq kulolchilik charxi va pechlari paydo bo'lib, idishlarda cho'ziq burunli choynaksimon shakllar yuzaga keladi. Ular shtrix, yarimaylana, to'liqinsimon, sperial va kesishmali chiziqlar bilan bezatila boshlandi. Eramizdan avvalgi 2200-2000 yillarda tosh kesish san'ati ham rivoj topadi va idishlarni toshdan yasash keng tarqaladi. O'sha davrga mansub yodgorliklar ichida oltindan ishlangan zargarlik buyumlari ham topilgan.



Mikena devoriy surati. Ov manzarasi



Mikena shaharining Sherlar darvozasi.




## QADIMGI GRETSIYA SAN'ATI



Greklar san'atida inson obrazi yuqori va asosiy o'ringa qo'yiladi. Quldorlik tuzimi davrida yuzaga kelgan har bir davlat mustaqil rivojlangan. Oddiy xalqni o'rni juda katta bo'lgan. Chunki urush boshlangan vaqtlarda "Xalq jangchilari" tuzilgan va jang qilgan. Jamiyatda so'z va tanlash erkinligi mavjud bo'lgan. Harbiy demokratiya bo'lgan. Shahar davlat – polis deb atalgan. Erkin xalq- demos, yuqori tabaqa kishilari – efpatriya, qullar – odam hisoblanmagan. "Odatda, qadimgi Gretsiya san'ati tarixi Mikenaning qulashi va doriylar tomonidan Peloponnes, uning janubida joylashgan orollar, Kritning bosib olinishi bilan boshlanadi va eramizdan avvalgi 11 asrdan to eramizdan avvalgi 1 asrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi"<sup>15</sup>.


Qadimgi Gretsiya tarixi quyidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy rivojlanish bosqichlardan iborat:



<sup>15</sup> Н.Абдуллаев. Санъат тарихи. Тошкент., "Ўқитувчи" 1987 й., 69-70 б.

**Gomer davri.** Eamizdan avvalgi XI-VIII asrlarda Gretsiyada urug‘doshlik jamoa boshqaruvining yo‘qolib borishi va uning o‘rnini quldorlik tuzimiga xos yangi munosabatlar egallashi Gomer davri tarixiy vaziyatining muhim tomonidir. Jamiyatda mulkiy tengsizlik boshlanib, insoniy huquqlardan uzoqlashib borayotgan qullar, mashaqqatli turmush tarziga ega bo‘lgan dehqon, chorvador va hunarmandlarni

hayotga ilhomlantiruvchi xalq epik poeziyasi vujudga keldi. Davrning ziyoli olimlari tomonidan yozilgan eposlarda insonlarni ideal hayotga bo‘lgan orzu-istaklari – mard, jismoniy va ma’naviy barkamol shaxs qiyofasidagi qahramonlar misolida ifodalandi. Dostonlarda xalq hayoti, insonparvarlik, vatanparvarlik, jasorat, ezgulik va yovuzlik orasidagi kurash, chin insoniy fazilatlar ulug‘lanardi.



Gomer haykali




Gerakl va Kentavr. Olimpiyadan topilgan bronza haykal. Gomer davri. Er.avv. 8 asr. Nyu-York. Metropoliten muzeyi



Yer haydayotgan dehqon. Terrakota Beotidan topilgan. Er.avv. 8 asr. Parijning Luvr muzeyi.

O‘sha davrda yashab ijod etgan eng mashhur yozuvchi Gomer edi. Uning “Iliada” va “Odisseya” dostonlari yuksak qadrlanardi.

Gomer davrida me‘morlikdagi avvalgi an‘analar davom ettirildi. Tabiiy ashyolar (loy, tosh, suyak, yog‘och) dan yasalgan haykallarda xalq hayotidan olingan voqealar aks ettirilgan. Madaniy hayotda xalq hunarmandligi avvalgi davrlar (Egey madaniyati)ga nisbatan yaxshi rivojlangan. Jumladan, kulolchilikda yaratil buyumlarda xalq ijodiyotining eng nozik jihatlari namoyon bo‘ladi. Shunday asarlardan biri Afina yaqinidagi Dipilon darvozasi atrofidan topilgan katta hajmli “Dipilon” vazalaridir.



**Gomer davri kulolchiligi**



**Kora. Elevsinlik qiz.**  
**Marmar. Er.av. 500-yil**

**Arxaika davri.** Poleslarda<sup>16</sup> quldorlik vujudga kelishi davri hisoblanadi. Bu antik xalq madaniyati eski badiiy g'oyalar bilan uyg'unlashgan davrdir. Yangi memorchilik prinsiplari shakllandi, xaykaltaroshlik, badiiy hunarmandchilik rivojlanib, lirik poeziya gullay boshlagan. Polis davlatlari tezlik bilan rivojlanib borishi bilan birga, ular orasida muttasil urushlar ajv olganligi bois, jamiatda kuchli va irodali shaxslarga ehtiyoj kuchaygan. Natijada davlat fuqarolari uchun na'munali hisoblangan fazilatlar ilgari surilib, vatan himoyasi uchun jismoniy sog'lom, davlat manfaatini harqanday xususiy manfaatlardan ustun qo'yadigan ma'naviy-ahloqiy yetuk insonlar ulug'landi. Bu borada san'at sohalari yetakchi badiiy-g'oyaviy kuchga aylandi. Haykaltaroshlikda ideal obrazlar "Kuros" haykallarida ifoda etildi. Bu haykallarda jismonan baquvvat, ichki dunyosi vatan



**Haykaldan fragment**

<sup>16</sup> O'sha davrdagi shahar davlatlar shunday nomlangan

manfaatlariga yo'g'rilgan barkamol yoshdagi inson tasviri kiyimsiz holatda tasvirlandi. Kuros haykallari anatomik aniqlikda, qat'iy simmetrik mutanosiblikda, biroz harakatsiz qomatda tasvirlangan.

Arxaika davrida me'morlik ayniqsa, avvalgi davrlarga nisbatan tez sur'atda rivojlandi. Shaharsozlikning takomillashib borishi bilan yangi me'moriy uslub va badiiy yechimlar yuzaga keldi. Antik davrning qadimgi Mikena madaniyatidan meros qolgan "Akrapol" shaharsozligi arxaika davrida yanada rivojlandi, yangi tipdagi me'morlik binolari va haykaltaroshlik bilan uyg'unlashib bordi.

Shaharning eng yuqori qismiga ibodatxona, uning oldida marosim o'tkazishga mo'ljallangan maydon, uning markazida polis xaloskori hisoblangan monumental haykal o'rnatilar edi. Akrapolning tashqi tomonidagi tevarak atrofda turarjoy binolari qurilgan.

Me'morlikda ibodatxona yetakchi o'rin egallardi. Ibodatxona qurilishida uslubiy yechimlab ko'p bo'lgan. Ular orasida keng tarqalgani Peripter uslub edi. Ibodatxonaning markazida sella, ya'ni muqaddas yer bo'lgan, atrofi esa ustunlar qatori bilan o'rab chiqilgan.




Grek kurosi haykali




Kora. Afina akropollik qiz. Marmar. Eramizdan avv. 6 asr oxiri. Afina. Akropol muzevi.


# ARXAIK DAVRI IBODATXONALARI TURLARI




1). Prostil




2). Amfiprostil



3). Peripter





4). Dipter



5). Talos

# ME'MORLIKDAGI ORDER TIZIMI






Grek me'morligida ustunlar tuzilishi, shaklu-shamoyili va bezagiga alohida e'tibor qaratilgan. Jahon me'morligida hozirgi kunda ham o'z badiiy qimmatini yo'qotmay, hanuzgacha qo'llanilib kelinayotgan Order sistemasi o'sha davrning ilk ijod mahsulidir. Arxaika davri me'morligining o'ziga xos tomoni ham aynan Order sistemasida ko'proq kuzatiladi. Me'morlikdagi orderlar uch turdan iborat: birinchisi – doriy; ikkinchisi – ion; uchinchisi – korinf. Doriy orderiga xos ustunlar yuzasi tarnovcha (kannelyura) lardan iborat bo'lib, tepa tomonga kichrayib boradi va stereobat deb ataluvchi tosh asosga o'rnatiladi. Ustunning yuqoridagi tugallangan qismi dumaloq botiq shar (Exin) bilan ulanadi. Tepa qismidagi to'rtburchak shaklli plita (abaka) – arxitrav, karniz va frizdan iborat yaxlit antabliment kompozitsion birikmasini tashkil etadi. Orderning ustunga qo'yilgan to'sin (arxitrav) – friz, metop (to'rtburchak plita), tringlif (vertikal tarnovchali kannelyurali plita) lar bilan uyg'un birikma hisoblanadi. Ibodatxonaning tomidagi fronton deb nomlangan tekis yuzasi hamda metoplariga



boʻrtma haykallar ishlangan. Mazkur Order tizimi keyingi grek meʼmorligida keng qoʻllaniladi. Arxaika davri meʼmorligiga namuna qilib, eramizdan avvalgi VI asr oʻrtalarida qurilgan Pestumdagi “Gera” ibodatxonasi hamda eramizdan avvalgi VI asr ikkinchi yarmida bunyod etilgan Korinfdagi “Apollon” ibodatxonalarini koʻrsatish mumkin.




**Doriy orderidan namuna.**



**Ion orderidan namuna**



**Korinf orderidan namuna.**




1). Prostil




Mikena saroyi ko‘rinishi





**Prostil tipidagi ibodatxona tipi bundan bir necha asrlar avval Mikena podsholigining saroy zallarida qo‘llanilgan**



2). Amfiprostil



3). Peripter



## 5) Talos

Tolos tipi bugungi kunda ham jahon me'morligida qo'llanilib kelinmoqda.

**Klassik davri.** Grek shaxar-davlatlarining Eramizdan avvalgi V-IV asrlarda yuksak darajada rivojlanishi, me'morlik, haykaltaroshlik, rangtasvir va amaliy san'at o'z taraqqiyotining yuqori cho'qqisiga ko'tarilgan tarixiy bosqichi – klassika davri deyiladi. Klassika – san'at va madaniyat, falsafiy qarashlar, poeziya va drama ijodiyotining gullab-yashnagan pallasidir. Bu vaqtda Afina davlatida quldorlik demokratiyasi rivojlangan, fuqorolar o'zligini anglab, erkin aholini jamoa hayotida faol qatnashuvi kuchaygan davr edi.

Eramizdan avvalgi V asr o'rtalarida Afina 150 dan ortiq grek polislar orasida boshqarish vakolatiga ega bo'lgan yagona qudratli davlatga aylandi. Afina dengiz yo'li orqali savdo-sotiq hukumronligiga erishishi, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy yuksalishni yanada tezlashtirdi. Madaniyat markazi sifatida katta mavqeyga ega bo'lgan Afinada fan, san'at va madaniyat beqiyos darajada rivojlandi. Antik davrning buyuk faylasuf va tarixchilari va boshqa mutafakkirlar aynan shu davrda yashab ijod qildi. Jumladan Safokil, Suqrot, Gerodot, Demokrit, Aflotun (Platon), Meliss, Empedokl, Antisfen, Aristip, Diogen kabi yetuk faylasuflarni shu o'rinda ta'kidlash mumkin. Bu taraqqiyotda o'sha davrning tashabbuskor davlat arbobi, ilm-fan va madaniyat, badiiy ijodkorlikni qo'llab-quvvatlovchi shaxs Periklning munosib hissasi bor. U yuqorida nomlari keltirilgan ijodkor va faylasuflarni o'z atrofida to'plab, ijodiy faollikka undadi. "Bu davrda san'at beqiyos rivojlandi. U erkin insonlarning histuyg'ularini ifodalovchi, ularni doim ozodlikka chorlovchi bir minbarga aylandi. Ideal insonni qanday bo'lishi kerakligini ifodaladi. Me'mor, haykaltarosh, rassomlarning asarlari keyingi asrlarda ham o'z



**Delf aravakashi. Bronza. Er.avv. 470-yil atrofi. Delf muzeyi.**



**Delf aravakashi. Fragment**

qiymatini yo‘qotmay, taqlid qilish uchun klassik namuna bo‘lib qoldi”<sup>17</sup>.

Klassika davrida ko‘plab mahoratli haykaltaroshlarning yetishib chiqishi va sermahsul ijod qilishi natijasida haykaltaroshlik taraqqiyot cho‘qqisiga ko‘tarildi. Bu borada yetuk ijodkorlar – Miron, Galikrat, Iktin, Poliklet, Appekas, Praksitel, Skopas, Leoxar, Lisipp kabi haykaltaroshlar faoliyati yetakchilik qildi. Polislarning umumjamiyat taraqqiyoti, ilm-fan, san‘at va madaniyat ravnaqi, me‘morlikda erishilgan ulkan yutuqlar hanuzgacha insoniyatni badiiy ijodga ilhomlantirib kelmoqda.

Klassika me‘morchiligida peripter tipidagi ibodatxonalar, doriy uslubidagi saroylar, hashamatli binolar qad ko‘tardi. Klassika davrida Dions teatri, Afina Attikasi, Egina Afinasi, Afina Akropoli, Parfenon, Erexteyon, Afina Akropoli, Afayi ibodatxonasi, Zevs, Gera, Nika kabi ibodatxona va boshqa binolar qurildi.

Rassomchilik, haykaltaroshlik va amaliy san‘at bo‘yicha bugungi kunda ham jahon san‘ati xazinasining durdonalari sanalmish: «Disk otuvchi», «Delf aravakashi», «Apollon», «Nayzabardor», «Marafon jangchi», «Gerakl», «Chavandozlar», «Dam oluvchi», «Yosh amazonka», «Belveder Apolloni», «Apoksiomen», «Jangchini boshi» kabi asarlar ijod qilindi.

Qadimgi Yunonistonni klassika davri san‘ati va me‘morchiligi o‘z davridan ancha o‘zib ketgan holda rivoj topdi. Chunki, bu davrda yaratilgan san‘at va me‘morchilik asarlari hozirga qadar jahon xalqlari diqqatini tortib keladi. Hozirchi zamon ishodkorlari xam qadimgi Yunon klassika davri san‘atiga katta ijodiy mehr bilan qaraydilar.

Klassika davriy taraqqiyoti quyiddagi shartli bosqichlar bo‘lib o‘rganiladi: 1) Ilk klassika – er.av. 490-450 yillar; 2) Yuqori klassika – er.av. V asrning ikkinchi yarmi; 3) So‘nggi klassika – er.av. V asr oxiri.

Ilk klassika davrida perepter tipidagi o‘ziga xos ijodiy yondoshuv kasb etuvchi ibodatxonalar qurilishi faollashib, bu binolarda doriy uslubidagi usturlar tizimi ko‘proq qo‘llanildi. Shu o‘rinda Pestumdagi “Gera ibodatxonasi” (er.avv. V asr



«Afina Parfenos». Er.avv.V asr.  
Fidiy ishlagan haykal nushasi.  
Ffina milliy muzeyi.

<sup>17</sup> Абдуллаев Н. Санъат тарихи. 1 т. - Тошкент: Ўқитувчи, 1986. Б-79.




boshlari), Ege orolidagi “Afina Afayi ibodatxonasi” (er.avv. 490 y), Olimpiya shaharidagi “Zevs ibodatxonasi” ni misol keltirish mumkin.

Ilk klassika davrida haykaltaroshlik taraqqiyoti ayniqsa yaqqol ko‘zga tashlanadi. Haykaltaroshlik asarlari me‘morlik binolarini bezabgina qolmay, alohida ochiq maydonlarga ham o‘rnatildi. Haykallarning ishlanishida realistik ijodiy yondoshuv mahorati ortib, tarixiy, mifologik hamda xayotiy mavzularning badiiy-ijodiy salohiyati yuksakldi. Ayni vaqtda chuqur anotomik tahlil asosida yaratilgan “Garmodiy va Aristogiton”, “Delf aravakashi” nomli haykallari, Afina Afayi ibodatxonasi frontonida Grek-Troya urushi voqealaridan iborat bo‘rtma tasvir kompozitsiyalari ijod qilindi.



**Ovchi-Artemida.** Leoxar ishlagan haykal nushasi. Er.avv. 330 yil atrofi. Marmar.



**Dam olayotgan Germes.** Lisip. Neopl Milliy arxeologik muzeyi.

Eramizdan avvalgi V asrlarning ikkinchi yarmi – yuqori klassika davridan Gretsiya san‘ati yuksak cho‘qqilarni zabt etdi. Me‘morlik, haykaltaroshlik va boshqa san‘at turlarida asarlarning estetik xususiyati mukammallashdi.

Eron-Grek urushi davrida vayron bo‘lgan binolar Afina akropoli qayta qurildi va uning markaziga “Afina haykali o‘rnatildi”, yangi ibodatxonalar bunyod etildi. Grek me‘morligidagi eng mashhur binolar – Parfenon ibodatxonasi, Propiley darvozasi, Nike ibodatxonasi qurildi. Parfenon ibodatxonasi grek me‘morligining peripter uslubiga xos klassik namunasi hisoblanadi. Bino eramizdan avvalgi 447-438-yillarda tajribali me‘morlar Iktin va Kallikrat loyihasi asosida qurilgan.

Ibodatxona tuzili shining ko'rkamligi bilan birga, bohirona bajarilgan haykalllar bilan bezatilgan. Bu haykallar o'sha davrning mashhur ijodkori haykaltarosh Fidiy tomonidan ishlangan.

Parfenon yaqinida yangi talqindagi me'morlik yodgorligi – Erextiyon ibodatxonasi qad ko'targan. Bu ibodatxonaning boshqalaridan alohida ajralib turuvchi va tomoshabin diqqatini jalb etuvchi o'ziga xos tomoni shundaki, bino ustunlari kariatida nomli ayol qomatidan tashkil topgan oltita bir-xil ko'rinishga ega bo'lgan va nozik badiiy-estetik kayfiyatda talqin etilgan haykallarning ishlanganligidir.

Klassik davrning oxirlarida (mil.av. IV asr) quldorlik jamiyatining birinchi inqirozi sababli polislar rivojlanishi to'xtay boshlaydi va bu IV asr ikkinchi yarmidan klassik san'atni inqirozga olib keldi. Greklarning ichki ziddiyatlari va o'zaro urushlarning kelib kechishi uni keyingi tarixiga salbiy ta'sir etdi. Bu orada Makedoniya qo'shinlari Filip II boshchiligida greklarga qarshi harbiy yurish boshladi. Miloddan avvalgi 338-yilda Gretsiya Makedoniya qo'shinlari tomonidan zabt etildi, 337-yili esa Greklar Makedoniyaliklar bilan tinchlik- ittifoqlik sulhini tuzdi. Shundan keyingi davr antik san'atning ellinizm davri deb nomlanadi.



**Erextiyon** ibodatxonasidagi **kariatida** deb ataluvchi ayol qomatidan tashkil topgan haykal ustunlar.




**Erextiyon ibodatxonasi.**  
Afina, Parfenon ibodatxonasi qarshisida joylashgan.



Fragment



**Afina xaykali. Fidiy**



**Iskandar Zulkarnayning otli xaykali. Lisipp**



**Agesandir, Polidor, Afinodor. Laokoon o'z o'g'llari bilan. Mil.avv. tax. 25 yil**



**Samofrakiya Nikesi. Gretsiya**



Nika ibodatxonasiga ishlangan rel'ef. Marmar. Er.avv. 409-yil. Afina. Akropol muzeyi.

**Ellinistik davr.** Miloddan avvalgi IV asr oxiridan imperiya tuzilishi bilan quldorlik jamiyati qisqa muddatga inqirozdan chiqishi va ellinistik monarxiya ostida quldorlarning birlashish davri bo‘ldi. Antik Gretsiyada yechimsiz ziddiyatlar kuchayib, erkin aholini katta qismi

quldorlik iskanjasida honavayron bo‘lishi va huquqsiz odamlar hisobiga yirik quldorlarning mislsiz boyishi va fuqorolar erkinligini yo‘qolishi o‘sha davr tarixiy sharoitining harakterli jihatidir. San‘at asta sekin xalqparvarlik va fuqarolik hususiyatlarini yo‘qatadi. Keyinchalik yellinistik davlatlarda Rim imperiyasi o‘z hukimronligini o‘rnatgandan keyin grek san‘ati qisman Rim san‘atiga uyg‘unlashib ketadi.

Ellinizm san‘ati Aleksandr Makedonskiy hukumronlik qilgan davrdan to eramizdan avvalgi 30 yillargacha (Gretsiyani Rim imperiyasi tomonidan batamom bosib olinishiga qadar) hukum surdi. Makedonskiy qadimgi Sharqning ko‘plab davlatlarni bosib olgandan keyin, mustamlaka xalqlar badiiy madaniyati ellin ijodiy an‘analari bilan qorishib ketdi.

Ellinizm davri ijodiyoti ham antik san‘at tarixida yuksak baholanadi. Bu davrda avvalgi ijodiy tajrija maktabi saqlab qolingani holda, g‘oyaviy-shakliy jihatdan yangilana boshladi. Jumladan, klassik davrda shahar markazlarida ibodatxonalar qurilgan bo‘lsa, ellinizm vaqtida bunday markazlarda muhtasham maydonlar bilan uyg‘unlashgan siyosiy-ma‘muriy binolar bunyod etdi. Grek me‘morligidagi order tizimi endilikda devorga yarim yopishgan holda ishlanib, me‘moriy bezakning tarkibiy qismiga aylanib bordi. Haykaltaroshlik esa bino bezagida o‘z ishtirokini saqlab qoldi. Bu davrda “Samofrakiya Nikesi” (Samofrakiya oroli uchun ishlangan mahobatli haykal), “Milos Afroditasi” (Milos oroli uchun ishlangan, hay-sh: Aleksandr, er.avv. 120 y), Pergam akropolidagi “Zevs mehrobi”ga ishlangan friz, “Leokoon o‘z o‘g‘illari bilan” (tax. Er.av. 25 yil., hay-sh: Agesandr, Polidor, Afinodor) kabi haykaltaroshlik namunalari ijod qilindi.



Oyog‘idav zirapcha olayotgan  
bola. Haykaltarosh Pifagor  
Pygiviskiy Er.av. V asr



Diskobol. Haykaltarosh  
Miron.Er.avv. V asr.



Antik davrning yana bir muhim madaniy markazi qadimgi Rim davlatidir. Qadimgi Rimda san'at va madaniyat milodan avvalgi VII asrdan milodiy V asrgacha taraqqiy etdi. Bu mamlakatda ham greklarda bo'lgani kabi, san'atning barcha turlari keng rivojlandi, me'morlik, haykaltaroshlik, rangtasvir va amaliy san'atda nodir san'at asarlari ijod qilindi, tasviriy san'atning yangi janrlari yuzaga keldi.

Qadimgi Rim madaniyati Apenin yarim orolida (er.avv. VIII asr) yashagan ilk Etrusk qabilasining aristokratik shahar-davlatlaridan tortib toki, eramizdan avvalgi VI asrdan milodiy V asrlargacha bo'lgan davrdagi quldorlik respublikasi hamda imperatorlik boshqaruviga xos tarixiy-siyosiy hamda iqtisodiy hayotidagi o'zgarishlar bilan bog'liqdir.




Eramizdan avvalgi VIII-VI asrlarda Italiyaning o'rta va G'arbiy hududlarida Etrusk qabilasi yashagan. Ular qurilish borasida mohir usta-hunarmand bo'lishgan. Etruriya ko'plab shaharlarni o'z ichiga olgan va har-bir shaharda kichik-kichik shaharchalari bo'lgan mamlakatdir. Shulardan eng qadimiylari – Tibr qirg'og'idagi Veyi, Sere, Vertuloniya, Vulchi, Kluzium, Peruziya, Aristinum

shaharlari hisoblanadi. Mamlakatdagi bu shaharlar bir-biri bilan ittifoq bo‘lib, ularning har-birini tepasida aristokrat kohin – lukumonlar turgan. Mamlakatdagi badavlat odamlardan tashqari aholi huquqsiz bo‘lib, aristokratga bo‘ysungan.


Etrusk shaharlarining atrofini baland va qalin devorlar qurshab olgan, yo‘l qurilishi (toshdan), kanal va uning ustiga ko‘priklar o‘rnatilgan. Ibodatxona qurilishi ham asosiy o‘rin egallagan. Ibodatxonalar oldi peshtoqli bo‘lib, binoni bezashda rangli releflar, sopol terrakotalardan foydalanilgan. Tomlariga akroteriya deb nomlanuvchi haykallar o‘rnatilgan. Ibodatxonalar ikki xil ko‘rinishda qurilgan: 1) Uchta sellali va chuqur kolonnali, portikli katta ibodatxonalar; 2) Uncha katta bo‘lmagan ikki ustunli, portikli va bitta selladan iborat ibodatxonalar. Bu binolar baland pedestal ustiga qurilgan. Ular yog‘och bostirmali bo‘lib, tosh yoki yog‘och kolonna ushlab turgan va ikki tavaqali, karnizi bo‘rtib chiqqan shifti bo‘lgan. Bino qurilishida toskan orderlari qo‘llanilgan. Toskan grek doriy orderining etrusk varianti hisoblanib, order kolonnalari kannelyurasiz, doriy orderiga o‘xshash baza va kapiteldan tashkil topgan. Etrusk maqbaralari dumaloq ko‘rinishli, usti yoysimon yarim dumaloq shaklida gumbazsimon bo‘lgan. Maqbaralar bezagida rangtasvirdan keng foydalanilgan.

Etrusk qabilasida haykaltaroshlik ham o‘ziga xos o‘rin tutadi. Haykaltaroshlardan Vulka o‘sha davrda samarali ijod qilgan. U Rimga Yupiter ibodatxonasini bezash uchun taklif qilingan. Veyidagi “Apollon” ibodatxonasining dekorativ haykallarini ham ishlagan.



Rimliklar eramizdan avvalgi II asr o‘rtalarida Apenin yarimorolidan O‘rta yer xavzasigacha bo‘lgan katta hududni bosib olib, xukmdor davlatga aylandi. Respublika tasarrufiga o‘tgan yerlardan boyliklarning Rimga olib kelinishi davlat taraqqiyotini oshirishi bilan birga, inqiroziga ham ta‘sir etdi. Jumladan, mulkiy tengsizlik oshib, ekspluatatsiya kuchayishi xalqning noroziligini kuchaytirdi, turli qo‘zg‘olonlarga sabab bo‘ldi. Bular ta‘sirida (masalan Spartak qo‘zqoloni) Rim respublikasining tanazzuli tezlashib, imperatorlik davriga zamin yaratildi.

Eramizdan avvalgi 1 asr oxirlaridan milodiy 476 yilgacha vaqt oraliqida Rim imperatorlik davri hukum surdi. Yuqorida qaytd etilgan ilk qabilalar jamiyatidan boshlab Imperiya inqirozigacha bo‘lgan davrning – ijtimoiy-siyosiy hamda tarixiy-madaniy jarayonlari davomida Rim san’atida me’morlik, haykaltaroshlik, rangtasvir va hunarmandchilik yuksak rivojlandi.



Rimda memorlik respublika davridan boshlab jadal rivojlandi. O‘sha davr qurilishiga xos Rim legionlarining jang safariga chiqishi uchun mo‘ljallangan “Appiy yo‘li” (er.avv. 312 yil), jiddiy me’morlik nazariyasi asosida qurilgan ko‘prik va osma suv quvurlarini shu o‘rinda misol keltirish mumkin. Rimliklar qadimgi grek davlatlarini bosib olib, ular qurgan binolar tuzilishiga katta qiziqish bilan qaradilar. Bu kabi bunyodkorlik Rim shaharlarida ham jonlandi. Biroq, Rimdagi binolar greklarnikiga qaraganda bezakka boyligi, jimjimadorligi va nafosati bilan farq qiladi. Masalan, eramizdan avvalgi III - 1 asrlarda qurilgan ibodatxonalar, villa, saroy va boshqa binolarda grek me’morligining order tizimi yangi talqindagi ijodiy yondoshuvlarga boyligi bilan ajralib turadi. Order tizimidagi ustun va to‘sin kompozitsiyasi ko‘proq bezak o‘rnida qo‘llanilib, binolarning xashamdor bo‘lishida muhim vosita o‘laroq hizmat qildi. Grek kapitellari orasida korinf uslubi yetakchilik qildi. Respublika davri Rim me’morligida greklarning ion-korinf, etrusklarning toskan orderlari bino bezagining ajralmas qismiga aylandi. Rim me’morligining badiiy hashamdorligi imperatorlik davrida kuchaydi. Ayniqsa, eramizdan avvalgi 27 yildan – milodiy 14-yillarda birinchi imperator Oktavian Avgust xukmronligi vaqtida sanat rivoji yuqori bosqichga erishib, «oltin asr» nomini oldi. Ayni paytda memor **Vitruviy** ijodi shahar va ijtimoiy-mamuriy binolar qurilishida katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Bu davrda eng katta memorlik majmualari, murakkab me’moriy yechimga asoslangan ko‘p qavatli binolar qurildi. Ulkan hajmiy-fazoviy kenglikka ega saroylar, zafar ustun va darvoza-arkalar o‘sha davrning yirik madaniy yodgorligiga



aylandi. Jumladan, milodiy I asrning so'nggi choragi (81-yil) da qurilgan "Tit memorial zafar arkasi", "Panteon" ibodatxonasi, Rimning eng mashhur binosi hisoblangan "Kolizey" (rimliklar atamasi bo'yicha kolosseý – katta, ulug' ma'nosini bildiradi) amfiteatri o'sha davrning ijod mahsuli sanaladi. Darhaqiqat rimliklar ataganidek katta hajmli bu bino Gladiadorlar jangi tomoshasiga kiruvchi 55 ming kishini sig'dira olgan.

Imperatorlik davrining yana bir mashhur binosi (memor Apollodor tomonidan 118-125 yillar) "Panteon" qurilgan ibodatxonasidir. Mazkur bino katta gumbaz bilan yopilganligi, ko'rinishining soddaligi, oldi tomonida qizil toshli korinf ustundan qurilgan peshtoqi borligi uni boshqa binolardan ajratib turadi. Bino intererining kompozitsion yechimi ham o'ziga xosdir. Devori ikki yarusdan iborat, birinchi yarusi tokchali bo'lib, haykallar qo'yishga mo'ljallangan, ikkinchi yarusi marmar pilyastrlar bilan qismlarga bo'lingan, tepasi esa gumbaz bilan yopilgan. Gumbazning yuqori qismidagi 9 diametrli darcha (darcha – «panteon ko'zi» deb nom olanadi) bino inter'eriga fazoviy kenglik bag'ishlab, xonani xashamatli qilib ko'rsatadi.

Milodiy 476-yilda Rim imperiyasi Varvarlar tomonidan zabt etilishi bilan antik dunyo san'ati tugallanadi. Biroq, uning boy ijodiy tajribaga ega bo'lgan san'ati keyingi davr jahon san'ati taraqqiyotida muhim o'rin egalladi. Ko'plab rassom, haykaltarosh va me'morlar uchun taqliq maktabi bo'lib hizmat qildi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдуллаев Н.У. “Санъат тарихи” Т-1. Тошкент, Ўқитувчи, 1987 қ.
2. Ойдинов Н. “Ўзбекистон тасвирий санъати тарихидан лавҳалар”, Тошкент. Ўқитувчи 1997.
3. Н.Ойдинов. Аждодларимиз санъати ва еътиқоди. Тошкент. “Ўқитувчи” 1992 й.
4. Дмитриева И.А. “Краткая история искусств”. Очерки Вып. 1.1. М. 1968-1975.
5. Ойдинов Н. Рассом ўқитувчилар тайёрлаш муаммолари. – Тошкент: Ўқитувчи – зиё-ношир, 1997. – 214 б.
6. Орипов Б. Тасвирий санъат асослари. – Наманган, 1994. - Б. 56 б.
7. Орипова Б. Санъат назарияси. – Наманган, 2000. - 22 б.
8. Хўжайев Т., Абдуллаев К. Аждодларимиз қиёфаси. – Тошкент: Фан, 1990. – 49 б.
9. Эгамбердиев А. Ҳаёт ва рассом. Тошкент: Ўзбекистон, 1978. - 30 б.
10. Ўзбекистон санъати (1991-2001 йиллар) /Х.Кароматов, Н.Жўраев, Т.Қўзиёв ва б.; А.Ҳакимов таҳрири остида. –Тошкент: Шарқ, 2001. -236 б.
11. Всеобщая история искусств. Т-1. «Искусство» 1956 г. С-212.
12. Виппер Б.Р. “Искусство Древней Греции”. М. 1972.
13. Виппер Б.Р. “Искусство Древней Греции”. М. 1972.
14. Кол.авт. “История искусств зарубежных стран” Т. 1-3. М. 1963-1964
15. Кол.авт. “История зарубежного искусства” М. 1983.
16. Кол.авт. “Искусство стран и народов мира” Краткая художественная энциклопедия. Т. 1-5. М. 1962-1981.
17. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. “История искусств Узбекистана”.
18. Пугаченкова Г.А. Скульптура Халчаяна. – Москва: Искусство, 1971. - 286 с.
19. Цырлин И. М. Виды изобразительного искусства. – Москва: художник, 1961. – 63 с.
20. Турчин В. Значение и функции материала в скульптуре //Творчество. – москва, 1979.
21. Турчин В. Границы художественного образа в скульптуре //Творчество. – Москва, 1984.

## MUNDARIJA

Kirish.....	3
<b>1 BOB</b>	
<b>QADIMGI DUNYONING DASTLABKI IJODIYOTI.....</b>	<b>4</b>
Ibtidoiy jamoa davri O‘zbekiston san’ati.....	5
Qadimgi dunyo san’ati .....	17
<b>2 BOB</b>	
<b>QADIMGI SHARQDAGI QULDORLIK DAVLATLARI</b>	
<b>SAN’ATI.....</b>	<b>21</b>
Qadimgi Misr san’ati.....	22
Old Osiyo san’ati.....	41
Qadimgi Eron va O‘rta Osiyo .....	49
Qadimgi Hindiston san’ati.....	53
Qadimgi Xitoy san’ati.....	55
<b>3 BOB</b>	
<b>ANTI-K DAVR SAN’ATI.....</b>	<b>57</b>
Egey madaniyati yoki Krit-Miken san’ati.....	60
Qadimgi Gretsiya san’ati.....	66
Qadimgi Rim san’ati.....	86
Foydalanilgan adabiyotlar.....	90

**DILMUROD PO`LATOV**

**TASVIRIY SAN`AT TARIXI**  
**(Qadimgi dunyo san`ati)**

**Muharrir:** Gulchexra ZOKIROVA  
**Texnik muharrir:** Abdulaziz TOSHPO`LATOV  
**Musahhih:** Moxira TOJIBAYEVA

Terishga berildi 02.03.2018.  
Bosishga ruxsat etildi 10.04.2018 y.  
Bichimi 60x84 1/16, Hajmi 5.75 bosma taboq.  
Adadi 500 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.



“NAMANGAN” NASHRIYOTI  
Namangan shahri, Navoiy ko`chasi, 36.  
Nashriyot litsenziya raqami AI – 156  
2009 yil 14 avgustda berilgan

---

“Toshbuloq oqshomi” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Manzil: Namangan tumani, Mustaqillik ko`chasi, 5- uy.